

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRI, TOSHKENT SHAHAR
VA VILOYATLAR MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BOSHQARMASI XODIMLARINING LAVOZIM YO'RIQNOMALARI**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshlig'ining
LAVOZIM YO'RIQNOMASI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnoma Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshlig'i (keyingi o'rinlarda hududiy boshqarma boshlig'i) ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Hududiy boshqarma boshlig'i Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Hududiy boshqarma boshlig'i bevosita Vazirga bo'ysunadi va o'z faoliyatini vazirlik tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunlari, shuningdek, ta'lim tizimiga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini hamda Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining qaror va buyruqlarini viloyat miqyosida bajarilishini muvofiqlashtiradi.

2-bob. Hududiy boshqarma boshlig'ining lavozim majburiyatlari

4. Hududiy boshqarma boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, ta'lim strategiyasini ishlab chiqish, uning rivojlantirish istiqbollari belgilash va rejalashtirish, ta'lim tizimini maktabgacha va maktab xo'jaligining boshqa sohalari bilan o'zaro aloqalarni takomillashtirishni ta'minlaydi;

viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining Nizomiga muvofiq boshqarma Hay'at majlisiga rahbarlik qiladi;

viloyat maktabgacha va maktab ta'limi tizimida byudjet mablag'larini maqsadli va to'g'ri ishlatilishini nazorat qiladi, muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi;

moliyaviy hujjatlarga birinchi imzo qo'yadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida shuningdek, "Ijtimoiy himoya" milliy agentligi tarkibiga o'tkazilguniga qadar "Mehribonlik uyi" va maxsus maktab-internatlarida o'quv-tarbiyaviy ishlarida, moliyaviy va xo'jalik ishlarini yuritilishi jarayoniga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

o'z vakolati doirasida viloyatning ta'lim tizimida kadrlar siyosatini amalga oshirib boradi;

o'zining ish faoliyati yuzasidan bevosita viloyat hokimligi hamda Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga bo'ysunadi;

boshqarma faoliyatiga yakka rahbarlikni amalga oshiradi;

boshqarma boshlig‘i ishda bo‘lmagan davrda (mehnat ta‘tili, mehnatga layoqatsizlik davri, xizmat safarlari) yoki uning lavozimi bo‘sh (vakant) bo‘lganida yoki lavozimdan ozod etilgan taqdirda uning vakolati doirasiga kiruvchi vazifa va masalalar boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlaridan biriga quyidagi tartibda yuklatiladi:

- hududiy boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari;
- hududiy boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari;

3-bob. Hududiy boshqarma boshlig‘ining huquqlari

4. Hududiy boshqarma boshlig‘i quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta‘tillari berish orqali ta‘minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta‘minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta‘minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi va ma‘naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish.

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog‘idan tekin foydalanish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

5. Hududiy boshqarma boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Hududiy boshqarma boshlig'ining javobgarligi

6. Hududiy boshqarma boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda Hududiy boshqarma nizomiga muvofiq o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Hududiy boshqarma boshlig'i faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Hududiy boshqarma boshlig'i imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

9. Hududiy boshqarma boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarma boshliqlarining birinchi o‘rinbosarining LAVOZIM YO‘RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda - hududiy boshqarma) boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (keyingi o‘rinlarda — birinchi o‘rinbosari) quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Hududiy boshqarma boshlig‘iga bo‘ysunadi;

hudud bo‘yicha **ta‘lim va tarbiya masalalariga mas‘ul hisoblanadi;**

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning Hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Birinchi o‘rinbosarning lavozim majburiyatlari

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari, Vazirlik hay‘ati qarorlari, buyruqlari, Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri va uning o‘rinbosarlarining topshiriqlari bilan zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish, topshiriqlarning o‘z vaqtida mutasaddilik qiladigan tarkibiy bo‘linmalar hamda mutasaddilik qiladigan idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

boshqarma boshlig‘i vaqtincha bo‘lmaganda, tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ularga bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

mutasaddilik qilinadigan yo‘nalishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik buyruqlari bilan tasdiqlangan hududiy bo‘linmalar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha konsepsiyalar, kompleks dasturlar va chora-tadbirlar rejasi ijrosini tanqidiy tahlil qilish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni so‘zsiz ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘rish, bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar yillik, yarim yillik va choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta‘minlash;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi bilan birgalikda boshqarma boshlig‘iga takliflar taqdim etish, ularning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta‘minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish, mutasaddilik qilinadigan bo‘linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy

hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni boshqarma boshlig'iga kiritish;

ta'lim sohasiga kiradigan faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

faoliyat yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar) bo'limlari va boshqarma tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi URQ 445-sonli qonuni ijrosi yuzasidan nazorat olib borish;

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida ko'rib chiqish, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslar vakillarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o'z vakolatlari doirasida belgilangan muddatlarda va to'laqonli ko'rib chiqilishini ta'minlash;

tegishli masalalar bo'yicha haftaning belgilangan kunlarida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish;

umumta'lim maktablarida Davlat ta'lim standartlari asosida barcha umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarning amaliyotga samarali tatbiq etilishini ta'minlanish;

umumta'lim maktablarini o'quv fanlaridan darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan to'liq ta'minlash ishlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish;

ta'lim sifatining umumiy holatiga asosan umumta'lim maktablari reytingini aniqlashda ko'maklashish;

o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamasini optimallashtirishni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini amaliyotda qo'llash ishlarini tashkil etish;

o'quvchilarga ta'lim berish sifatini oshirishga yo'naltirilgan, davlat standartlari talablari bajarilishini o'rganish bo'yicha intellektual ko'rik-tanlovlar va musobaqalar tashkil qilinishini ta'minlash asosida iqtidorli o'quvchi yoshlarni aniqlash hamda ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta'minlab borish;

umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtasida mahalliy va xalqaro, shu jumladan nodavlat fan olimpiadalarini tashkil etish;

olimpiadalarda yuqori natijalarni qayd etgan iqtidorli o'quvchilarning kelgusidagi faoliyatini monitoring qilib borish;

qat'iy nazorat (hisob)dagi sinf jurnallarini elektron yuritilishi va bitiruvchilar attestatlarini elektron yuritilishini, o'quv hujjatlari (, shahodatnoma, ularni hisobga olish daftarlari va h.k.) buyurtmalar asosida joylarga yetkazilishini tashkil etish, ularni saqlash, hisobga olish ishlarini nazorat qilish;

uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakl va usullarini hamda axborot — kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishini muvofiqlashtirish;

pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

pedagog va rahbar xodimlarni uzluksiz ravishda o'zini o'zi kasbiy-pedagogik rivojlantirish (butun hayoti davomida ta'lim olish) faoliyatini muvofiqlashtirish;

maktab ta'limi xodimlarining malakasini oshirish yillik rejasini ishlab chiqadi va Vazirlikka taqdim etish;

rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy ehtiyojidan kelib chiqib ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslariga jalb etish choralarini ko'rish;

rahbar va pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishda Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari bilan hamkorlik qiladi va pedagoglar uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining turli shakllaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

maktab ta'limi tizimida xalqaro tajribalar asosida qisqa va uzoq muddatli treninglar, o'quv-seminar va malaka oshirish kurslarini o'tkazish, trenerlar tayyorlashni tashkil etishda hamkorlik qilish;

umumta'lim maktablari hamda o'rta maxsus professional boshlang'ich ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali 11 yillik umumiy o'rta ta'limni joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

umumta'lim maktablarining 1-sinfiga o'quvchilar qabuli va Prezident sovg'alarini berilishini nazorat qilish;

chet el fuqarolari farzandlarini maktablarga qabul qilish ishlari hamda nostrifikatsiya komissiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish;

umumta'lim maktablari o'quvchilarining sinfdan-sinfga ko'chirish bo'yicha ishlarni nazorat qilish;

umumta'lim maktablarida tajriba-sinov ishlarini olib borilishini muvofiqlashtirish;

ta'lim sohasida axborot — kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradi va axborot xavfsizligini ta'minlash;

umumta'lim maktablarini keng polosali Internet tarmog'iga ulash va uning uzluksiz ishlashini ta'minlash bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

umumta'lim maktablarining kompyuter texnikasiga bo'lgan ehtiyojni o'rganadi, tahlil qiladi va Vazirlikka taklif kiritish;

kompyuter texnikalaridan va elektron ta'lim resurslari hamda internet tarmog'idan samarali foydalanish, elektron hujjat almashinuvi tizimini uzluksiz ishlashini ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standarti doirasida mustaqil o'zlashtirgan ta'lim oluvchilarni eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazilishi boshqarma boshlig'i buyrug'i bilan vakolati berilgan maktablarda tashkil etilishini nazorat qilish;

umumiy o'rta ta'lim taraqqiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan hududiy seminar-kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etish;

Hay'at yig'ilishiga kiritilgan masalalar bo'yicha hujjatlarning sifatli va o'z muddatida tayyorlanishini nazorat qilish;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish, shuningdek mutasaddilik qiladigan tarkibiy bo'linmalar xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Birinchi o'rinbosarning huquqlari

4. Birinchi o'rinbosar quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

5. Birinchi o'rinbosar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Birinchi o‘rinbosarning javobgarligi

6. Birinchi o‘rinbosar o‘z lavozim majburiyatlari hamda nizamga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Birinchi o‘rinbosar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

9. Birinchi o‘rinbosar hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta‘minlashga shaxsan javob beradi.

10. Birinchi o‘rinbosar imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. Birinchi o‘rinbosar mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshliqlarining o'rinbosari

LAVOZIM YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda - hududiy boshqarma) **boshlig'ining o'rinbosari** (keyingi o'rinlarda boshliq o'rinbosari) quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita hududiy boshqarma boshlig'iga bo'ysunadi;

boshliq o'rinbosari bevosita hududiy boshqarma boshlig'iga bo'ysunadi hamda hudud bo'yicha tarbiyaviy ishlar bo'yicha masalalariga mas'ul hisoblanadi;

boshliq o'rinbosari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Boshliq o'rinbosarining lavozim majburiyatlari

2. Boshliq o'rinbosari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa qonun hujjatlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining (keyingi o'rinlarda matnda vazirlik deb yuritiladi) qarorlari, buyruqlari va topshiriqlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

boshliq o'rinbosari o'z faoliyatini vazirlik hamda boshqa davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tegishli xizmatlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

boshliq o'rinbosari faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

hududdagi davlat ta'lim muassasalari, o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirishga va ularning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazishiga yo'naltirilgan ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish va uni muvofiqlashtirish;

maktabdan tashqari ta'limni tashkil etishga qaratilgan talablar asosida o'quvchilarni iqtidorini ro'yobga chiqarishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishini ta'minlash, ta'lim muassasalarida yetkazish va ijrosini nazorat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish uchun dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminarlar, kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlar tashkil etish;

maktab o'quvchilari orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tarbiyaviy ishlarini olib borish borasida tegishli idoralar bilan hamkorlik qilish;

"Tarbiya" fani turkumiga kiruvchi fanlardan o'quv dasturlari, darslik, uslubiy qo'llanmalar va adabiyotlarni yaratish va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi hamda ushbu fanlarning o'qitilishini nazorat;

ta'lim muassasalarida sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyatini joylarda o'rganadi, uslubiy yordam ko'rsatadi hamda faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga rahbarlik qiladi;

ta'lim muassasalaridagi tarbiyasi og'ir bolalar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etish ishlarini muvofiqlashtiradi va bu borada joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish;

manfaatdor vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari bilan birgalikda boshqarma boshlig'i topshirig'iga ko'ra me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda uni takomillashtirish;

tizimdagi davlat ta'lim muassasalari bilan birgalikda ta'limni rivojlantirishning yaqin, o'rta va uzoq istiqbol rejalarini ishlab chiqish;

o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish uchun tizimda ta'lim muassasalar uchun ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zarur o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ta'lim muassasalari iqtidorli va ijodkor o'qituvchilar, ma'naviyat bo'yicha direktor o'rinbosari va sinf rahbarlarining tarbiyaga asoslangan ilg'or ish faoliyatini ommalashtirish;

manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda uni takomillashtirishda ishtirok etish;

rahbarning topshirig'iga binoan hududdagi ta'limni rivojlantirish yuzasidan hamkorlikdagi dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni amalga oshirishda qatnashish;

ta'lim muassasalarida o'quvchilarning iste'dodi va qobiliyatlarini aniqlash maqsadida umumta'lim maktablar o'quvchilarining respublika va xalqaro tanlovlarda ishtirokini ta'minlash;

tegishliligi bo'yicha umumta'lim maktablarida mehnat qilayotgan pedagog xodimlar va fuqarolarning ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq takliflari, ariza va shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha rahbariyatga, shuningdek, tegishliligi bo'yicha davlat hokimiyati hamda manfaatdor tashkilotlar va davlat idoralariga takliflar berish, zarur hollarda boshqarma yig'ilishi muhokamasiga kiritish.

viloyatdagi iqtidorli o'quvchilarni ta'lim olishi va ularni o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishida ishtirok etadi, davlat ta'lim muassasalariga yetkazadi va ijrosini nazorat qiladi;

ta'lim taraqqiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi va boshqa tegishli boshqarma va tashkilotlar tomonidan ushbu yo'nalishda tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etadi;

rahbariyatning topshirig'iga binoan viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat ta'lim muassasalari bilan ta'lim va tarbiyani rivojlantirish yuzasidan hamkorlikdagi dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni amalga oshirishda qatnashadi.

o'rinbosar o'z vakolatlari doirasida boshqa tashkilot va idoralarning faoliyat to'g'risidagi materiallarni tayyorlashga ko'maklashish haqidagi buyurtma va so'rovlarini ko'rib chiqadi.

3. O'rinbosarga uning xizmat majburiyatiga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlarni yuklashga boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Boshliq o'rinbosarining huquqlari

4. Boshliq o'rinbosari o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududdagi uziga tegishli ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganib borish va ularga amaliy yordam ko'rsatishga tegishli idora va tashkilotlarni jalb etish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tasarrufidagi tashkilot va muassasalardan tegishli ma'lumotlar olish;

davlat va jamoat tashkilotlar bilan o'z vakolati doirasida ish yuritish va o'zaro yozishmalar olib borish;

o'z vakolatlari doirasida anjumanlar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar o'tkazish, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etish;

boshqarmaning yig'ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish;

zamonaviy talablarni hisobga olgan holda o'ziga tegishli bo'lgan tashkilotlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, shuningdek, undan keyingi ta'lim bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

tegishliligi bo'yicha davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda bolalarni ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish, ularda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq tegishli hujjatlarni olish, vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda o'z vakolati doirasidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun ularni taklif qilish va axborotlarini tinglash;

ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga munosib ijobiy hissasini qo'shayotgan rahbar, pedagog va boshqa xodimlarni rag'batlantirish yoki taqdirlash bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

ish hajmi ko'paygan holatlarda boshqarma boshlig'i bilan kelishgan holda tashkilot va muassasalar xodimlarini ularning roziligi bilan jamoatchilik asosida vaqtincha ishlash uchun jalb etish;

ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahvolini o'rganish, ma'lumotlari va hisobotlarini muhokama qilish, rahbariyatga tegishli takliflar kiritish huquqlariga ega.

4-bob. Boshliq o'rinbosarining javobgarligi

5. Boshliq o'rinbosari o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

6. Boshliq o'rinbosari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

7. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

8. Boshliq o'rinbosari hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

9. Boshliq o'rinbosari imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

10. Boshliq o'rinbosari mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar
va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarma boshliqlarining o‘rinbosarlari
LAVOZIM YO‘RIQNOMASI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda - hududiy boshqarma) boshlig‘ining o‘rinbosari quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita hududiy boshqarma boshlig‘iga bo‘ysunadi;

hudud bo‘yicha moliyaviy masalalarga mas‘ul hisoblanadi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning Hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Boshliq o‘rinbosarining lavozim majburiyatlari

3. Tuzilma bo‘yicha birlashtirilgan tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining lavozim majburiyatlariga rioya qilinishini va ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi hamda ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilishini nazorat qiladi;

moliyaviy-iqtisodiy masalalarga doir hududiy boshqarmaning qarorlari, buyruqlari va shu kabi boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

hududiy boshqarmaning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini o‘z vaqtida tuzilishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazilishini, zarur hollarda ularga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni nazorat qiladi;

hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro‘yxatlarini o‘z vaqtida tuzilishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazilishini, zarur hollarda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini nazorat qiladi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari faoliyatini, jumladan, umumta‘lim muassasalari va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro‘yxatlarini o‘z vaqtida tuzilishini, ro‘yxatdan o‘tkazilishini hamda ularga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro‘yxatlariga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tahlil qilib borilishini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro‘yxatlari tuzilishiga tegishli bo‘lgan ko‘rsatkichlar o‘zgarishini tahlil qilib borilishini nazorat qiladi;

moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida Hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarining xarajatlar smetasi, shtatlar jadvallari va tarifkatsiya ro‘yxatlari, ularni tuzish uchun tegishli ko‘rsatkichlar o‘zgarishi hisobiga kiritilgan va kiritilayotgan o‘zgartirishlarni, shuningdek, xodimlarga amalga oshirilayotgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘g‘ri to‘lab borilayotganligini doimiy ravishda tahlil qilib borilishini nazorat qiladi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumta‘lim muassasalari va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari

xodimlarining homiladorlik va tugʻish nafaqalarini belgilangan muddatlarda topshirilishini, qoʻshimcha talab etiladigan mablagʻlar boʻyicha tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilib borilishini va jamlangan holda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga yuborilishini nazorat qiladi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy oʻrta taʼlim maktablari va maktabgacha taʼlim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhlar boʻyicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari tomonidan yuborilgan shtatlar jadvalini qabul qilinishini va tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilgan holda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga yuborilishini nazorat qiladi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy oʻrta taʼlim maktablari va maktabgacha taʼlim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhlar boʻyicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari tomonidan yuborilgan xarajatlar smetalarini qabul qilinishini va tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilgan holda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga yuborilishini nazorat qiladi;

markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan umumiy oʻrta taʼlim maktablari va maktabgacha taʼlim tashkilotlarining ish haqi toʻlovlari boʻyicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari tomonidan yuborilgan qoʻshimcha mablagʻ ajratish uchun buyurtmanomalarni qabul qilinishini va tegishli hisob-kitoblarni tahlil qilgan holda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga yuborilishini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqligini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni oʻz vaqtida hamda toʻliq hajmda toʻlanishini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma, tasarrufidagi muassasa va tashkilotlar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarida ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlangan mablagʻlar, shtat birliklari toʻldirilmaganligi, shuningdek, tarmoq, shtatlar va kontingentlar boʻyicha reja bajarilmaganligi natijasida boʻshab qoladigan mablagʻlarni chegirish boʻyicha doimiy tahlil qilib borilishini nazorat qiladi va chegiriladigan mablagʻlar toʻgʻrisida vazirlikka va hududiy boshqarma boshligʻiga axborot kiritib boradi;

hududiy boshqarma, tasarrufidagi tashkilot va muassasalar, shuningdek, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan qamrab olingan muassasa va tashkilotlarning xarajatlar smetasi rejalashtirilgan mablagʻlarni oʻz vaqtida oʻzlashtirish holatlarini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning budjetdan tashqari jamgʻarma mablagʻlarini shakllantirilishini (daromadlarini oshirishni) umumiy nazorat qiladi hamda xarajatlarni optimallashtirish boʻyicha choralarni koʻrib boradi;

hududiy boshqarma xodimlari, Hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar hamda Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan vazirlik topshiriqlarini bajarishda sustkashlikka yoʻl qoʻyilgan taqdirda, ularga chora koʻrish yuzasidan hududiy boshqarma boshligʻiga taklif kiritadi;

hududiy boshqarmaning boshqa tarkibiy boʻlinmalari bilan faoliyat uzviyligini taʼminlash, faoliyat yoʻnalishlari boʻyicha tegishli axborotlarni yigʻish, tahlil qilish va birgalikda ishlashni tashkil qiladi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari va umumiy oʻrta taʼlim maktablari va maktabgacha taʼlim tashkilotlarining kiritiladigan lavozimlar boʻyicha ish haqi toʻlovlari, ustama haq va boshqa qoʻshimcha toʻlovlar belgilanishi yuzasidan tushunmovchiliklar yuzaga kelgan holatlarda metodik yordam koʻrsatadi;

hududiy boshqarma tizimidagi tashkilot va muassasalarning bosh hisobchi va bosh iqtisodchi lavozimlari bo'yicha zaxira bazasini shakllantiradi va "ustoz-shogird" uslubi bo'yicha malaka oshirish tizimini tashkil etadi;

hududiy va respublika miqyosida seminarlar, kengash yig'ilishlari, o'quvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadsiz sarflanishini nazorat qilish, moliyaviy xato va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, budjet intizomiga rioya etishni ta'minlaydi;

hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning xarajatlar smetasi doirasida ularning buyurtmalariga muvofiq va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlar xarid qilish va xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar tuzish, shuningdek, iste'mol limitlari va sarf-xarajat normalariga rioya etilishini monitoring qilib boradi;

tashkilot va muassasalar, korxonalar va fuqarolarning murojaatlari ko'rib chiqadi va ular yuzasidan hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

hududiy boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning choraklik, yillik hisobotlarini o'z vaqtida to'g'ri yuborilishini ta'minlaydi;

"Yuridik va jismoniy shaxslarni murojaatlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga javob xatlari tayyorlashni nazorat qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarni shaxsan qabul qiladi;

lavozim majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishi yuzasidan hududiy boshqarma boshlig'iga axborot kiritib boradi.

3-bob. Boshliq o'rinbosarining huquqlari

4. Boshliq o'rinbosari quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi va ma’naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish.

5. Boshliq o‘rinbosari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4-bob. Boshliq o‘rinbosarining javobgarligi

6. Boshliq o‘rinbosari o‘z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

7. Boshliq o‘rinbosari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

8. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlaydi.

9. Boshliq o‘rinbosari hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta’minlashga shaxsan javob beradi.

10. Boshliq o‘rinbosari imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

11. Boshliq o‘rinbosari mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi

boshlig'ining

LAVOZIM YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i (bundan buyon matnda – bo'lim boshlig'i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bo'lim boshlig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bo'lim boshlig'i bevosita Boshqarma boshlig'iga bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bo'lim boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Bo'lim boshlig'ining lavozim majburiyatlari

4. Bo'lim boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

bo'lim bo'yicha biriktirilgan tarkibiy bo'linmalar xodimlarining lavozim majburiyatlariga rioya qilinishini va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi hamda ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilishini nazorat qiladi;

viloyat maktabgacha va maktab ta'limi tizimida inson resurslari bilan ishlash sohasini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollari monitoring va tahlil qiladi hamda ushbu sohadagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

boshqarma, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, idoraviy mansub tashkilot va muassasalar tuzilmasi bo'yicha lavozim yo'riqnomalarini tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda ishlab chiqilishini tashkil etadi;

kadrlarning mehnat salohiyatini imkoni bo'richa to'liq ishga solish asosida boshqarma oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda har bir xodimning shaxsiy hissasini oshirish bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda choralar ko'radi;

muntazam ravishda istiqbolli kadrlarni tanlash, seleksiya qilish ishlarini olib boradi va ularni kadrlar zaxirasiga kiritadi;

kadrlar xizmati sohasidagi zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining hududiy filiali bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

inson resurslarini rivojlantirish, istiqbolli kadrlar seleksiyasining samarali mexanizmlarini joriy etish, kadrlarni seleksiya qilish, saralab olish va joy-joyiga qo'yishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlaydi;

Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari tomonidan huquqiy monitoring bo'yicha axborotlarni o'z vaqtida, to'liq, ishonchli va sifatli topshirilishi yuzasidan nazorat qilish, Boshqarma boshlig'iga tarkibiy bo'linmalarining huquqiy monitoringga oid faoliyati samaradorligini ta'minlash va oshirish yuzasidan takliflar va bildirishnomalar kiritish;

talabnoma-da'vo tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 50 barobardan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofot olish.

Boshqarmada, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalarda qonun buzilishi holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi organga, Adliya vazirligining hududiy boshqarmasiga va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi;

belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi va attestatsiyadan o'tish.

Sho'ba boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi

21. Sho'ba boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda Sho'ba nizomiga muvofiq Sho'ba ga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

22. Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

23. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

24. Sho'bada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

25. Sho'ba boshlig'i o'zi viza qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

26. Sho'ba boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Yuridik xizmat ko'rsatish Sho'ba si bosh yuriskonsultining lavozim yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Boshqarma deb yuritiladi) Yuridik xizmat ko'rsatish Sho'basi (keyingi o'rinlarda Sho'ba) bosh yuriskonsulti lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh yuriskonsult belgilangan tartibda Boshqarma boshlig'i buyrug'iga asosan Adliya vazirligining hududiy boshqarmalari bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh yuriskonsult Boshqarma boshlig'iga, Sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi.

3. Bosh yuriskonsult lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida bir yillik ish stajiga ega bo'lgan, davlat va xorijiy tillarni biladigan, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan yangiliklar hamda islohotlardan xabardor, sohaga oid normativ huquqiy hujjatlar va soha yuzasidan yetarli bilimga ega, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxslar tayinlanishi mumkin.

4. Bosh yuriskonsult O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarori va Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2017-yil 1-yanvardagi 250-son qarori talablariga qat'iy amal qilgan holda o'z ishini tashkillashtiradi va olib boradi.

2-bob. Bosh yuriskonsultning lavozim majburiyatlari

5. Bosh yuriskonsult o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining normativ hujjatlariga amal qiladi.

6. Boshqarmalari hamda uning tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar xodimlari ishtirokida ishlarni olib boradi.

7. Yuridik xizmat bilan bog'liq ishlarni qonunchilik hujjatlariga asosan olib boradi.

8. Boshqarma tizimidagi tashkilot va muassasalarda xodimlarning normativ hujjatlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganishda qatnashadi va amaliy yordam beradi.

9. Bosh yuriskonsult yuridik xizmat va maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga bevosita tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bazasini tayyorlashni muvofiqlashtiradi.

10. Quyidagilar bosh yuriskonsult faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

Boshqarmaning huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

Boshqarma xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;

shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organi va tashkilotining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

11. Bosh yuriskonsult o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) Boshqarmaning huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish sohasida:

a) Boshqarmada, shuningdek tegishli tuzilmalarda qonun buzilishlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan bo'lim boshlig'iga va bo'lim boshlig'i o'rinbosariga takliflar kiritadi, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

b) Boshqarma rahbariyatiga taqdim qilinadigan buyruqlar, shartnomalar va yuridik tisdagi boshqa hujjatlar loyihalarini ularning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi;

d) jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan Boshqarmaning qarorlari yuzasidan xulosalar beradi;

e) mustaqil ravishda yoki Sho'ba boshlig'ining topshirig'iga asosan boshqa tuzilmalar bilan birgalikda Boshqarmaning buyruqlari, shartnomalari va yuridik tisdagi boshqa hujjatlarini ishlab chiqish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

f) Boshqarmada, shuningdek tegishli tuzilmalarda huquqni qo'llash amaliyotini o'rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

g) Boshqarmaning boshqa tuzilmalari bilan birgalikda Boshqarma, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalar hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikning buzilishi ko'rsatilgan arizalar, takliflar va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

h) Boshqarmada boshqaruv tizimini takomillashtirish, Boshqarma huzuridagi tashkilotlar va muassasalar hamda ularning mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

i) Boshqarmada mehnat haqidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlashda, shu jumladan mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni (mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, jamoa bitimi va boshqalarni) ishlab chiqishda ishtirok etadi, ushbu hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi va huquqiy xulosa beradi;

j) Sho'ba boshlig'ining topshirig'iga asosan Boshqarma rahbariyatiga davlat organi va tashkiloti faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash ahvoli yuzasidan hisobot tayyorlashni muvofiqlashtiradi;

k) Boshqarma xodimlarining kasaba uyushmalari va boshqa vakillik organlariga vakolatlarini amalga oshirishda yuridik yordam ko'rsatadi;

3. Boshqarma xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazish sohasida:

a) Boshqarma rahbariyati uchun qonunchilik masalalari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

b) Sho'ba boshlig'iga Boshqarma, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalar xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish tadbirlarini tashkil etish to'g'risida takliflar kiritadi, ushbu tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etadi;

d) Boshqarma faoliyatiga tegishli qonunchilikni targ'ib qilish ishlarida ishtirok etadi;

e) zudlik bilan Boshqarma axborot xizmatiga Boshqarma veb-saytiga joylashtirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlarni kiritish uchun tayyorlaydi;

f) Boshqarma xodimlarining murojaatlari bo'yicha ularga Boshqarma faoliyatiga tegishli huquqiy hujjatlarni topishga ko'maklashadi, zarur hollarda ularning qoidalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

g) qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlarni, sud amaliyotini, Adliya vazirligining huquqiy ishlarga taalluqli ko'rsatmalarini Boshqarma huzuridagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazadi;

4) shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, Boshqarmaning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sohasida:

a) davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek fuqarolar bilan nizolar vujudga kelganda, Sho'ba boshlig'ining topshirig'iga asosan mustaqil yoki boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radi;

b) boshqa tuzilmalar bilan birgalikda Boshqarma tomonidan shartnomalarni tayyorlash va tuzish ishlarida ishtirok etadi, ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi hamda shartnomalar loyihalariga, agar e'tiroz va takliflar bo'lmasa, ularni bo'lim boshlig'i yoki bo'lim boshlig'i o'rinbosariga viza qo'yish uchun kiritadi;

d) shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

e) Boshqarma tomonidan tuzilgan shartnomalarni zarur darajada bajarish bo'yicha takliflar kiritadi, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

f) Boshqarmaning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha talabnomalar tayyorlashda va davlat organi va tashkilotiga nisbatan bildirilgan talabnomalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi, davlat organi va tashkilotida talabnomalar bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

g) tegishli bo'limlar bilan birgalikda davlat organi va tashkilotining debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganadi, ularning miqdorini kamaytirish choralari ko'radi;

h) shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da'vo ishlarini olib boradi;

i) Boshqarmaning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashda hamda belgilangan tartibda sud majlislarida ishtirok etadi;

j) mulkni saqlash masalalari bo'yicha huquqiy tisdagi hujjatlar loyihalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi va ularni tayyorlashda ishtirok etadi;

k) boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda Boshqarmada mulkning talon-taroj qilinishi, kamomad va noishlab chiqarish xarajatlarining kelib chiqishi sabablari va sharoitlarini tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish choralari ko'radi, Sho'ba boshlig'ining topshirig'iga asosan mulkning talon-taroj qilinishi va kamomad holatlari bo'yicha materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish uchun rasmiylashtiradi;

l) moddiy boyliklar va pul mablag'larini hisobdan chiqarish to'g'risidagi hujjatlar loyihalari, shuningdek qonun buzilishlari va suiiste'mollar aniqlangan auditorlik tekshiruvlari va xatlovdan o'tkazish dalolatnomalari bo'yicha huquqiy xulosalar beradi.

Bosh yuriskonsult qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

12. Bosh yuriskonsultga ushbu Yo'riqnomada yoki boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

13. Sho'ba ishini samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi.

14. Sho'ba faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, bo'lim faoliyatiga oid muhim masalalar haqida vazirga muntazam ravishda axborot beradi.

15. Xodim sifatida ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etish majburiyatini to'liq o'z zimmasiga oladi.

16. Rahbariyat topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi.

17. Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga amal qiladi.

18. Ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qiladi.

19. Mazkur lavozim yo'riqnomasida bayon qilingan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajaradi.

3-bob. Bosh yuriskonsultning huquqlari

20. Bosh yuriskonsult quyidagi huquqlarga ega:

Boshqarmaga kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni tanishish, xizmatda foydalanish va ularning tizimlashtirilgan hisobini yuritish uchun birinchi navbatda olish;

Boshqarma, uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalar mansabdor shaxslaridan yuridik xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni olish;

Sho'ba boshlig'ining topshirig'iga asosan vazir tomonidan chaqiriladigan huquqiy masalalarga tegishli yig'ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;

Boshqarma rahbariyatining topshirig'iga ko'ra yoki tegishli tuzilma rahbarining roziligi bilan ularning xodimlarini normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun, huquqiy ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga jalb qilish;

qonunchilikka zid bo'lgan, qonunchilik texnikasi talablariga javob bermaydigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini ijrochilariga puxta ishlash uchun qaytarish, o'z e'tirozlarini asoslagan holda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida huquqiy xulosalar berish, rahbariyat topshirig'iga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan boshqa tuzilmalar bilan birgalikda ushbu loyihalarni puxta ishlashida ishtirok etish;

Boshqarma huzuridagi tashkilotlar va muassasalarda Boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi masalalarini o'rganish;

Boshqarma, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalarning qonunchilik hujjatlari bajarilishini ta'minlamayotgan yoxud ularni buzayotgan rahbarlari va xodimlarini javobgarlikka tortish haqida rahbariyatga takliflar kiritish;

Sho'ba boshlig'ining topshirig'iga asosan Boshqarmada, shuningdek uning huzuridagi tashkilotlar va muassasalarda yoki Boshqarma tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlar, taftishlar va xatlovlarda, shuningdek ularning yakunlari bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish hamda aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan huquqiy xulosalar berish;

talabnoma-da'vo tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 50 barobardan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofot olish.

Bosh yuriskonsult qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

21. Sho'ba boshlig'i vaqtincha ishda bo'lmaganda (mehnat ta'tili, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xizmat safari va boshqa sabablarga ko'ra) yoki mazkur lavozim bo'sh (vakant) bo'lganda uning vazifasini bosh yuriskonsult amalga oshiradi.

4-bob. Bosh yuriskonsultning javobgarligi

22. Bosh yuriskonsult o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun javob beradi.

23. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

24. Bosh yuriskonsult uning yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishiga javob beradi.

25. Bosh yuriskonsult o'zi viza qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

26. Bosh yuriskonsult mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash

sho‘basi boshlig‘ining lavozim yo‘riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi boshlig‘i (bundan buyon matnda – sho‘ba boshlig‘i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho‘ba boshlig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho‘ba boshlig‘i bevosita boshliqqa bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho‘ba boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risidagi Yo‘riqnomaga” hamda mazkur yo‘riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Sho‘ba boshlig‘ining lavozim majburiyatlari

4. Sho‘ba boshlig‘i quyidagilarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan o‘dob-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi;

davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilishi;

o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta‘sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

sho‘ba faoliyatiga bevosita umumiy rahbarlik qiladi, sho‘ba ishlarini tashkillashtiradi, yo‘naltiradi va nazorat qiladi;

sho‘baga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Boshqarma boshlig‘i rahbarligidagi yig‘ilishlarni tashkil etadi;

Boshqarma va uning rahbariyati faoliyati bo‘yicha ma‘lumotlarni umumlashtirish hamda tahlil etish jarayonlariga bevosita rahbarlik qiladi;

devonxona faoliyatini belgilangan tartibda tashkil qiladi;

ish yuritish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda ish yuritish faoliyatiga oid muhim masalalar haqida boshqarma rahbariyatga axborot beradi.

boshqarma tizimida axborot-tahlil, ijro nazorati faoliyatiga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, ijro intizomi talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlaydi;

boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar faoliyatini talab darajasida olib borilishini hamda belgilangan maqsadga erishishni nazorat qiluvchi samaradorlikni baholash (KPI) mezonlarini ishlab chiqish, joriy etish va monitoringni amalga oshirish ishlarini tashkil qiladi;

boshqarma tizimida hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibini o'rnatadi;

boshqarma tizimida ijro intizomi talablariga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatadi;

boshqarmaning hay'at yig'ilishi hujjatlarini tayyorlaydi, hay'at a'zolari va tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari, ta'lim muassasalari rahbarlarini Hay'at yig'ilishiga ishtirokini ta'minlaydi;

normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlarni ro'yxatini shakllantirish, ular bo'yicha aniq ijrochilar, muddatlar va bajarish mexanizmlari ko'rsatilgan topshiriqlar tayyorlanishini hamda ularning ijrochilarga yetkazilishini nazorat qiladi;

"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi hamda "edo.ijro.uz" elektron hujjat aylanish tizimi bilan mas'ullarni ishlash jarayonini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidan kelgan murojaatlarni (taklif, ariza va shikoyat) o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olish, mazmunan o'rganish va boshqarma faoliyatiga taalluqlilarini rahbariyat orqali boshqarma apparati xodimlari va tuman (shahar) bo'limlariga ijro uchun yetkazilishini hamda belgilangan muddatda bajarilishini nazoratini olib boradi va nazoratdan olinishi yuzasidan monitoring yuritadi;

boshqarmaga kelib tushgan, boshqarma faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, shuningdek, anonim, takroriy va ko'rmasdan qoldiriladigan murojaatlar (taklif, ariza va shikoyat) bo'yicha belgilangan muddatda tegishli xulosa va javob xatlari asosida o'rnatilgan tartibda nazoratdan olinishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari va boshqa davlat idoralaridan kelgan murojaatlarni (taklif, ariza va shikoyat) mavjud qonun hujjatlari talablariga muvofiq ko'rib chiqib, tahlil etish va natijalari bo'yicha har chorakda 1-7-jadvallar va 1-8-jadvallar shaklida tayyorlangan hisobotni o'rnatilgan tartibda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

Boshqarma rahbariyatining jismoniy va yuridik shaxslarni qabullarni tashkillashtiradi, zarur hollarda yozma va og'zaki murojaatlarni ko'rib chiqishda qatnashish uchun boshqarma va tuman (shahar) bo'limlarining mas'ullarini jalb etadi, sayyor qabulga oid tashkiliy va tahliliy ishlarni amalga oshiradi;

murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini buzgan aybdor xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy choralar ko'rish bo'yicha boshqarma boshlig'iga ma'lumot kiritadi;

sho'ba vakolatiga kiradigan masalalarga bag'ishlangan uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odoq-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etadi;

boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

boshqarma tizimidagi rahbar va xodimlarni rag'batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

faoliyati doirasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi, murojaatlarni o'rganadi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'radi;

o'zining kasbiy kompetensiyasini muntazam ravishda oshirib borishi shart.

Sho'ba boshlig'ining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i oldida hisobot berishi.

3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari

6. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarining miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

sho'ba faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo'ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

sho'ba zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

sho'ba zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbariyati va rahbari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

sho'ba vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tuman (shahar) bo'limlari va tasarrufdagi tashkilotlar faoliyatini o'rganish, tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida sho'ba xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Sho'ba boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi

8. Sho'ba boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Sho'badagi hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Sho'ba boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi bosh mutaxassisining lavozim yo‘riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi bosh mutaxassisi (bundan buyon matnda – bosh mutaxassis)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh mutaxassis Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bosh mutaxassis bevosita boshqarma boshlig‘i va sho‘ba boshlig‘iga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risidagi Yo‘riqnomaga” hamda mazkur yo‘riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi bosh mutaxassisi lavozim majburiyatlari

4. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi;

davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilishi;

o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

Boshqarma boshlig‘i rahbarligida tashkil etiladigan yig‘ilishlar, shuningdek boshqa tadbirlarga hujjatlarni tayyorlanishini ta’minlaydi;

Boshqarma va uning rahbariyati faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish hamda tahlil etish ishlarini amalga oshiradi;

Boshqarma tizimida ijro intizomi talablariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlaydi;

boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar, tuman (shahar) bo‘limlari faoliyatini talab darajasida olib borilishini hamda belgilangan maqsadga erishishni nazorat qiluvchi samaradorlikni baholash (KPI) mezonlarini ishlab chiqadi va monitoringni amalga oshiradi;

boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar, tuman (shahar) bo‘limlarida ijro intizomi talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar, tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ijro intizomi talablariga rioya etilishini o'rganish, shu jumladan, joyiga chiqqan holda va ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish;

qabul qilingan qaror, buyruq, majlis bayonnomalari hamda vazirlik, hokimlik va boshqarma ko'rsatmalarini bajarilishini tahlil qilib boradi, nazoratdan chiqarish yoki ijro muddatini uzaytirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

boshqarmaning choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlarini tayyorlaydi;

“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi hamda “edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish tizimi bilan mas'ullarni ishlash jarayonini ta'minlaydi;

Boshqarma rahbariyatining jismoniy va yuridik shaxslarni qabullarni tashkillashtiradi, sayyor qabulga oid tashkiliy va tahliliy ishlarni amalga oshiradi;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odo-axloq qoidalarga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etadi;

boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

boshqarma tizimidagi rahbar va xodimlarni rag'batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari, Maktabgacha va vazirlik hamda boshqa tashkilot va idoralardan kelgan murojaatlarni (taklif, ariza va shikoyat) o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olish, mazmunan o'rganish va boshqarma faoliyatiga taalluqlilarini rahbariyat orqali boshqarma apparati xodimlari va tuman (shahar) bo'limlariga ijro uchun yetkazilishini hamda belgilangan muddatda bajarilishini nazoratini olib boradi va nazoratdan olinishi yuzasidan monitoring yuritadi;

boshqarmaga kelib tushgan, boshqarma faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, shuningdek, anonim, takroriy va ko'rmasdan qoldiriladigan murojaatlar (taklif, ariza va shikoyat) bo'yicha belgilangan muddatda tegishli xulosa va javob xatlari asosida o'rnatilgan tartibda nazoratdan olinishini ta'minlaydi;

Murojaatlar bo'yicha har chorakda 1-7-жадваллар ва 1-8-jadvallar shaklida hisobotlarni muddatidan kechiktirmasdan tayyorlaydi;

faoliyati doirasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi, murojaatlarni o'rganadi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'radi;

Bosh mutaxassisning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5. Bosh mutaxassis quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i va sho'ba boshlig'i oldida hisobot berishi.

3-bob. Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho'basini bosh mutaxassisining huquqlari

6. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablagʻlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablagʻlar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga oʻzgartirish kiritish va shartnomani bekor qilish;

oʻz mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yoʻriqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq boʻlgan ish oʻrniga ega boʻlish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat taʼtillari berish orqali taʼminlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya taʼminotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari toʻgʻrisida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan taʼminlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga oʻz fikrini bildirish, oʻzi davlat fuqarolik xizmatini oʻtayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish boʻyicha takliflar kiritish;

oʻzining shaʼni, qadr-qimmati va ishchanlik obroʻsi davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini oʻtash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining oʻrni qoplanishi va maʼnaviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

oʻzining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

oʻzining shaxsiy hujjatlari toʻplami bilan tanishish.

Ijro intizomi shoʻbasi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) boʻlimlari, tasarrufdagi tashkilotlardan soʻrab olish va ular bilan oʻzaro hamkorlik qilish;

Ijro intizomi shoʻbasi vakolatiga kiruvchi masalalar boʻyicha boshqarma tarkibiy boʻlinmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) boʻlimlari faoliyatini oʻrganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha taklif tayyorlash;

ijro muddati yaqinlashayotgan nazoratdagi hujjatlar, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va ustuvor masalalariga oid, bajarilishi uzoq muddatga moʻljallangan hujjatlarning ijro holatini barcha bosqichlarda nazorat qilish, ularning ijrosini taʼminlashni masʼul ijrochilardan talab qilish va tekshirish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmogʻidan tekin foydalanish;

boshqarma tarkibiy boʻlinmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) boʻlimlari xodimlarining ijro intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki

lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan boshqarma boshlig'i nomiga tushuntirishlar olish, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha o'rnatilgan tartibda sho'ba boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Ijro intizomi sho'basini bosh mutaxassisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho'basini bosh mutaxassisining javobgarligi

8. Bosh mutaxassis o'z lavozim majburiyatlari hamda sho'ba nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Ijro intizomi sho'basini faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Ijro intizomi sho'basida hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Bosh mutaxassis imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Bosh mutaxassis mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi yetakchi mutaxassisining lavozim yo‘riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi yetakchi mutaxassisi (bundan buyon matnda – yetakchi mutaxassis)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Yetakchi mutaxassis Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) buyrug‘iga ko‘ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Yetakchi mutaxassis bevosita boshqarma boshlig‘i va sho‘ba boshlig‘iga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Yetakchi mutaxassis O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig‘i ko‘rsatmalariga (bundan buyon matnda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi” hamda mazkur yo‘riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi yetakchi mutaxassisi lavozim majburiyatlari

4. Yetakchi mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalarga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi;

davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilishi;

o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

Boshqarma boshlig‘i rahbarligida tashkil etiladigan yig‘ilishlar, shuningdek boshqa tadbirlarga hujjatlarni tayyorlanishini ta’minlaydi;

devonxona faoliyatini belgilangan tartibda tashkil qiladi;

ish yuritish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda ish yuritish faoliyatiga oid muhim masalalar haqida boshqarma rahbariyatga axborot beradi.

normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlarni ro‘yxatini shakllantirish, ular bo‘yicha aniq ijrochilar, muddatlar va bajarish mexanizmlari ko‘rsatilgan topshiriqlar tayyorlanishini hamda ularning ijrochilarga yetkazilishini ta’minlaydi;

Boshqarma va uning rahbariyati faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish hamda tahlil etish ishlarini amalga oshiradi;

Boshqarma tizimida ijro intizomi talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi;

boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar va tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini talab darajasida olib borilishini hamda belgilangan maqsadga erishishni nazorat qiluvchi samaradorlikni baholash (KPI) mezonlarini monitoringini amalga oshiradi;

qabul qilingan qaror, buyruq, majlis bayonnomalari hamda vazirlik, hokimlik va boshqarma ko'rsatmalarini bajarilishini tahlil qilib boradi, nazoratdan chiqarish yoki ijro muddatini uzaytirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

boshqarmaning choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlarini tayyorlaydi;

"Ijro.gov.uz" elektron hujjat aylanish tizimidagi Qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarni boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar va tuman (shahar) bo'limlari xodimlari tomonidan o'z vaqtida ta'minlanishini bo'yicha nazorat olib borishda bo'lim boshlig'iga ko'maklashish;

"edo.ijro.uz" elektron hujjat aylanish tizimiga boshqarma, tasarrufdagi tashkilotlar va tuman (shahar) bo'limlari mas'ullari tomonidan ijrosi bo'yicha kiritilgan hujjatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish (nazoratdan olish, bajarishda kamchiliklar aniqlangan holatlarda qayta ishlashga qaytarish);

Boshqarma rahbariyatining jismoniy va yuridik shaxslarni qabullarni tashkillashtiradi, sayyor qabulga oid tashkiliy va tahliliy ishlarni amalga oshiradi;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odo-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etadi;

boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

boshqarma tizimidagi rahbar va xodimlarni rag'batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari, Maktabgacha va vazirlik hamda boshqa tashkilot va idoralardan kelgan murojaatlarni (taklif, ariza va shikoyat) o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olish, mazmunan o'rganish va boshqarma faoliyatiga taalluqlilarini rahbariyat orqali boshqarma apparati xodimlari va tuman (shahar) bo'limlariga ijro uchun yetkazilishini hamda belgilangan muddatda bajarilishini nazoratini olib boradi va nazoratdan olinishi yuzasidan monitoring yuritadi;

boshqarmaga kelib tushgan, boshqarma faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, shuningdek, anonim, takroriy va ko'rmasdan qoldiriladigan murojaatlar (taklif, ariza va shikoyat) bo'yicha belgilangan muddatda tegishli xulosa va javob xatlari asosida o'rnatilgan tartibda nazoratdan olinishini ta'minlaydi;

Murojaatlar bo'yicha har chorakda 1-7-жадваллар ва 1-8-jadvallar shaklida hisobotlarni muddatidan kechiktirmasdan tayyorlaydi;

faoliyati doirasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi, murojaatlarni o'rganadi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'radi;

Yetakchi mutaxassisning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5. Yetakchi mutaxassis quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i va sho'ba boshlig'i oldida hisobot berishi.

3-bob. Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho'basini yetakchi mutaxassisining huquqlari

6. Yetakchi mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarining miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

Ijro intizomi sho‘basi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo‘limlari, tasarrufdagi tashkilotlardan so‘rab olish va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

Ijro intizomi sho‘basi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo‘limlari faoliyatini o‘rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog‘idan tekin foydalanish;

boshqarma tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo‘limlari xodimlarining ijro intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan boshqarma boshlig‘i nomiga tushuntirishlar olish, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda sho‘ba boshlig‘iga takliflar kiritish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Yetakchi mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4-bob. Nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho‘basi yetakchi mutaxassisining javobgarligi

8. Yetakchi mutaxassis o‘z lavozim majburiyatlari hamda sho‘ba nizomiga muvofiq bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Ijro intizomi sho‘basi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

11. Ijro intizomi sho‘basida hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta‘minlashga shaxsan javob beradi.

12. Yetakchi mutaxassis imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Yetakchi mutaxassis mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Matbuot kotibining lavozim yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi matbuot kotibining lavozim majburiyatlari, vakolatlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Matbuot kotibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining hududiy bo'linmalari va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Axborot xizmati bilan kelishilgan holda hududiy bo'linma rahbarining buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Matbuot kotibi bevosita boshliqqa bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Matbuot kotibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomaga" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Matbuot kotibining lavozim majburiyatlari

4. Matbuot kotibi quyidagilarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlarida Matbuot xizmatiga yuklatilgan vazifalarni hamda rahbariyatining boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlaydi.

Matbuot xizmati ishini takomillashtirish va kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirish choralari ko'radi.

Axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining hududiy bo'linmalari, mahalliy hokimliklar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari axborot xizmatlari bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Matbuot xizmatining yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari rahbariga kiritadi hamda vazirlikning Axborot xizmatiga tasdiqlash uchun yuboradi.

Matbuot kotibining faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda faoliyatiga oid muhim masalalar haqida hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari rahbariga va vazirlikning Axborot xizmatiga muntazam ravishda axborot beradi.

Ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog'ida axborot e'lon qiladi (chop etadi), shuningdek ularni rasmiy veb-saytlarda, hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalar va joylarga joylashtirish va yangilab borishni ta'minlaydi.

Ommaviy tadbirlarni, shu jumladan, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari rahbariyati ishtirokidagi press-tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar)ni tashkil etadi va o'tkazadi.

Ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, matbuot kotibi bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantiradi, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatadi, ommaviy tadbirlarni tashkil etadi.

Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning so'rovi asosida ularga og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi.

Matbuot kotibi oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun zarur bo'lgan axborotni hududiy boshqarmalarning boshqa bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikda to'playdi va ularni puxta ishlaydi.

Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari faoliyatiga doir masalalar bo'yicha bosma materiallarni tayyorlaydi hamda milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qiladi, teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlarni tashkil etadi.

Ommaviy axborot vositalari bilan axborot-ma'lumotnoma ishlarini amalga oshirish uchun Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma'lumotlar banki tashkil etilishi va yuritilishini ta'minlaydi.

Hududiy bo'linmaning veb-saytini zamonaviy darajada yuritishni ta'minlaydi.

Tashkil etiladigan rasmiy tadbirlardan teledasturlar, roliklar va lavhalar tayyorlashda va ularni montaj qilishda ishtirok etadi hamda ushbu materiallarni belgilangan tartibda saqlash uchun ularning arxivlashtirilishini ta'minlaydi.

Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmasi faoliyatiga doir foto, audio va videomateriallarni tayyorlaydi hamda ularni tayyorlash jarayonida davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirib borish, ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog'ida materiallar tarqatish bo'yicha kompleks ishlarni tashkil etadi.

Jamoa va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq qoidalari talablariga rioya etadi.

Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmasi ish rejasi, shuningdek rahbariyati topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi.

Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmasining obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qiladi.

Faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning, jumladan, ommaviy axborot vositalarining murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi.

5. Matbuot kotibiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

3-bob. Matbuot kotibining huquqlari

6. Matbuot kotibi quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.

zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Sho'ba boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Matbuot kotibining javobgarligi

8. Matbuot kotibi o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

10. Hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

11. Matbuot kotibi imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

12. Matbuot kotibi mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha bosh mutaxassisining lavozim yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha bosh mutaxassisi (bundan buyon matnda –bosh mutaxassis)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Tuzilma bosh mutaxassisi xizmat faoliyati davomida Boshqarma boshlig'iga bo'ysunadi.

3. Bosh mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari) amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Bosh mutaxassisning lavozim majburiyatlari

4. Bosh mutaxassis quyidagilarni amalga oshiradi:

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasiga** kiritadi;

Boshqarmaning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Vazirlik tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Boshqarmada korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasiga** kiritib boradi;

Boshqarmada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

Tizimda o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali boshqarma xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Boshqarmada yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va Vazirlik bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Boshqarma va tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Vazirlikning

Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasi xodimlariga yetkazadi;

Faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Boshqarmada korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda va Vazir talabiga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida Vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasiga** ma'lumot kiritib boradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Boshqarmaga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

Boshqarma xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Boshqarma xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq Boshqarma va maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi, tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Aniqlangan ma'lumotlarni Vazirlikning rasmiy veb-saytidagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish» bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Tizimdagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligiga va Vazirlikning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi, korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi, shuningdek, tizim xodimlari tomonidan kasbga oid odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish bo'yicha profilaktika qiladi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Tizimdagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma (shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Boshqarma faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan boshqarma zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;

o'qituvchining kasbiy faoliyatiga ota-onalar, vakolatga ega bo'lmagan idora va tashkilotlarning aralashish huquqiga ega emasliklari, shuningdek, o'qituvchilik faoliyatining erkinligi va kafolatlari to'g'risida qonunchilikdagi mustahkamlangan normalarni targ'ib qiladi;

huquqbuzarlik sodir etilganida o'qituvchining ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan sudga ariza bilan murojaat qilish huquqi bo'yicha profilaktika tadbirlari o'tkazadi;

o'qituvchining kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki o'qituvchining xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilish holatlarini o'rganadi va tegishli chora-tadbirlar belgilaydi;

pedagog xodimni lavozim majburiyati va kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, yig'ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish holatlarini aniqlaydi;

pedagog xodimlar va o'quvchilarni majburiy mehnatga, shu jumladan tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko'klamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, metall chiqindilari va makulatura yig'ish, shuningdek, boshqa turdagi mavsumiy ishlarga jalb qilish holatlarini oldini olish choralari ko'radi;

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning qonuniy huquqlarini himoya qiladi;

o'qituvchilarning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish masalasida va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida boshqarma bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi va uslubiy ko'maklashadi;

jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qiladi;

ish yurituviga berilgan ariza, shikoyat va takliflarni har tomonlama xolisona ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

xodimlarning ariza, shikoyat va takliflarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatini o'rganishda ishtirok etadi, bu yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish bo'yicha takliflarni kiritadi.

6. Boshqarma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

Tuzilma Nizomi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Tizimida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri Vazirlikka va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan ma'lumotnomalar kiritish;

har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi besh kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni Vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasiga** taqdim etish.

Mehnat va ijro intizomiga rioya qilish.

Odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Moddiy javobgarligidagi tovar moddiy boyliklardan samarali foydalanish, ularni but va soz holatda saqlash.

Mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va sanitariyaga doir qonunchilik talablariga rioya qilish.

Ish faoliyatida aniqlangan turli qonun buzilishlar va kamchiliklar hamda ish jarayonida yuzaga kelgan turli favqulodda holatlar haqida Boshqarma rahbariyatini zudlik bilan xabardor qilish.

7. Vazirlik rahbariyatining topshiriq, ko'rsatma va boshqa qonuniy talablarini bajarish.

3-bob. Bosh mutaxassisning huquqlari

8. Bosh mutaxassis o'z vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlardan foydalanadi:

Boshqarma va tizim xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlar hamda hujjatlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida xodimlardan zarur yordam so'rash va olish;

Boshqarma tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasiga** korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

Vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqarmasining** korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirish (xat)lari olish;

9. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

4-bob. Bosh mutaxassisning javobgarligi

10. Bosh mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarning sifatli va belgilangan muddatlarda bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

11. Tuzilmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi hamda hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga javob beradi.

12. Bosh mutaxassis ish joyida bo'lmaganda (mehnat ta'tili davrida va boshqa holatlarda) uning vazifasini Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i bajaradi.

Agarda Inson resurslari rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i ham yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra ish joyida bo'lmasa, ushbu vazifani Boshqarma boshlig'ining topshirig'iga asosan bo'lim mas'ul xodimlaridan biri amalga oshiradi.

13. Mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik qonunchilikka muvofiq chora qo'llashga sabab bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish Sho'ba si boshlig'ining lavozim majburiyatlari

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish Sho'ba boshlig'ining (bundan buyon matnda – sho'ba boshlig'i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tavsiyasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba boshlig'i bevosita Hududiy boshqarma boshlig'i hamda Hududiy boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosariga bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Sho'ba boshlig'ining lavozim majburiyatlari

4. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

umumiy o'rta ta'lim siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlarining tegishli boshqarmalari bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

Boshqarmada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish Sho'ba sining yillik, yarim yillik ish rejasi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Boshqarma boshlig'iga kiritish;

ish rejada belgilangan tadbirlarni o'z muddatida va sifatli ijro etilishi ustidan nazorat olib borish;

Sho'ba faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda Sho'ba faoliyatiga oid muhim masalalar haqida Boshqarma boshlig'iga muntazam ravishda axborot berib borish;

maktablar Sho'basiga bevosita umumiy rahbarlikni amalga oshirish, Sho'ba xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda mazkur nizomga muvofiq yuklangan vazifalar ijrosini nazorat qilish;

Sho'ba xodimlariga amaldagi qonunchilikka muvofiq vakolati doirasida tegishli topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etilishi bo'yicha o'rganishlar o'tkazadi, ulardagi muammoli holatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish;

sohaga oid hisobotlarni to'playdi, asosiy ko'rsatkichlarni shakllantiradi va tahlil qiladi, Boshqarma rahbariyati va boshqa vakolatli yuqori turuvchi organlarga taqdim qilish;

maktab filiallarini faoliyatini o'rganish va ularning kelgusidagi faoliyati bo'yicha Boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

maktab bitiruvchilariga e-shahodatnoma.uz elektron tizimida shahodatnomalarga buyurtmalarni o'z vaqtida kiritilishini nazorat qilish;

umumta'lim maktablarining bitiruvchilariga attestat, oltin va kumush medallarni o'z vaqtida yetkazib berishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

fuqarolarga yo'qolgan va yaroqsiz holatga kelgan shahodatnomalari o'rniga dublikat shahodatnoma olish uchun elektron tizimdan kelgan arizalarni belgilangan vaqtda ko'rib chiqilishini nazorat qilish;

hududdagi umumta'lim maktablariga maktab yoshidagi bolalarni to'liq qamrab olish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarni shakllantirish hamda qabul qilinishi kutilayotgan 1-sinf o'quvchilari uchun "Prezident sovg'asi"ga buyurtmalarni shakllantirish va vazirlikka taqdim etish;

umumta'lim maktablarining 1-sinfiga o'quvchilar qabuli va ularga "Prezident sovg'asi"ni yetkazib berilishini nazorat qilish;

erp.uzedu.uz elektron platformasida o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni shakllantirilishini ta'minlash va nazorat qilish;

o'quvchilarni bir maktabdan boshqasiga o'tkazish bilan bog'liq jarayonni (davlat xizmatini) muvofiqlashtirish, tizimli monitoringini olib borish;

umumta'lim maktablari tomonidan elektron dastur orqali yuborilgan sinflar komplektini shakllantirish to'g'risidagi ma'lumotlarni moliya bo'limi bilan birgalikda belgilangan mezonlar asosida ko'rib chiqish va tasdiqlash;

o'z faoliyat yo'nalishiga aloqador masalalarda hududiy boshqarma tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatilishini doimiy nazorat qiladi hamda muvofiqlashtirib boradi;

umumta'lim maktablarini yangi o'quv yiliga tayyorlash bilan bog'liq ishlarni tashkil etish va ular ishlarini muvofiqlashtirish;

lavozim majburiyatiga taalluqli yo'nalishlar bo'yicha fuqarolardan kelgan murojaatlarni o'rganib chiqib, tegishli javob xatlarini yuborish;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish, shuningdek rahbarlik qiladigan tarkibiy bo'linma xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

tizimda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari orqali kelgan arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqilishini nazorat qilish;

ta'lim tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

5. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Hududiy boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Hududiy boshqarma boshlig'i oldida hisobot berishi.

3-bob. Sho'basi boshlig'ining huquqlari

6. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish; kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta‘tillari berish orqali ta‘minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta‘minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta‘minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi va ma‘naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish.

umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo‘ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo‘limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo‘limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo‘yicha boshqarma boshlig‘iga taklif kiritish;

vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida sho'ba xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish.

7. Sho'ba boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi

8. Sho'ba boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda boshqarma nizomiga muvofiq o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

11. Sho'ba boshlig'i hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

12. Sho'ba boshlig'i imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Sho'ba boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish shoʻbasi metodistining lavozim majburiyatlari

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yoʻriqnomasi Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish Shoʻbasi metodisti (bundan buyon matnda – metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalari (keyingi oʻrinlarda Hududiy boshqarma) boshligʻi buyrugʻiga koʻra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

3. Metodist Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hayʼati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshligʻi koʻrsatmalariga hamda mazkur yoʻriqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

bevosita Hududiy boshqarma boshligʻining birinchi oʻrinbosari va Shoʻba boshligʻiga boʻysunadi;

Metodist Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hayʼati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda koʻrsatmalariga, boshqarmaning Hayʼati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning oʻz vaqtida ijro etilishini taʼminlagan holda faoliyatini olib boradi;

Shoʻbaning yillik, yarim yillik ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va Shoʻba boshligʻiga taqdim etish;

ishlarini tashkil etilishi boʻyicha oʻrganishlar oʻtkazadi, ulardagi muammoli holatlarni bartaraf etish boʻyicha Shoʻba boshligʻiga taklif kiritish;

asosiy koʻrsatkichlarni shakllantirish va tahlil qilish;

shahodatnomalarga berilgan buyurtmani tahlil qilish, attestat, oltin va kumush medallarga nomzodlar roʻyxatini oʻrganish, maktab hujjatlariga boʻlgan ehtiyojni aniqlash hamda nizom talablariga muvofiq buyurtmalarni shakllantirish va Vazirlikka taqdim etish;

maktab bitiruvchilariga e-shahodatnoma.uz elektron tizimida shahodatnomalarga buyurtmalarni oʻz vaqtida kiritilishini nazorat qilish;

chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar farzandlarini umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻqishlarini muvofiqlashtirish;

oʻquvchilarni bir maktabdan boshqasiga oʻtkazish bilan bogʻliq jarayonni (davlat xizmatini) muvofiqlashtirish, tizimli monitoringini olib borish;

elektron tizim orqali nostrifikatsiya qilish uchun kelib tushgan arizalarni koʻrib chiqish;

umumiy oʻrta taʼlim dasturlarini davlat taʼlim standarti doirasida mustaqil oʻzlashtirgan taʼlim oluvchilarni eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyasini topshirish uchun tushgan arizalarni oʻz vaqtida qabul qilinishini taʼminlash;

umumiy oʻrta taʼlim dasturlarini davlat taʼlim standarti doirasida mustaqil oʻzlashtirgan taʼlim oluvchilarni eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyasidan oʻtkazilishini tashkil etish;

fuqarolarga yo‘qolgan va yaroqsiz holatga kelgan shahodatnomalari o‘rniga dublikat shahodatnoma olish uchun elektron tizimdan yuborgan arizalarini belgilangan vaqtda ko‘rib chiqilishini nazorat qilish;

erp.uzedu.uz elektron platformasida o‘quvchilar haqidagi ma‘lumotlarni shakllantirishini ta‘minlash va nazorat qilish;

o‘quvchilarni bir maktabdan boshqa maktabga o‘tishda davlat xizmatlari orqali ariza topshirgan fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlash;

umumta‘lim maktablarini yangi o‘quv yiliga tayyorlash bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish va ular ishlarini muvofiqlashtirish;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

xodimlarning va ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sinin hurmat qilish;

ta‘lim tizimi obro‘si va sha‘niga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma‘lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma‘lumotlarning himoya qilinishini ta‘minlash;

foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Metodistning huquqlari

6. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta‘tillari berish orqali ta‘minlanadigan tarzda dam olish;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odo-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etadi, shuningdek, sho'ba metodistining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qiladi;

Boshqarma(Vazirlik)ning ish rejasi, shuningdek, vazirlik rahbariyati topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi;

Boshqarma(vazirlik)ning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qiladi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi.

5. Sho'ba boshlig'iga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari

6. Sho'ba boshlig'i zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

sho'baning faoliyatiga yakka boshchilik asosi da umumiy rahbarlik qiladi;

boshqarmaning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni Boshqarma (Vazirlik) tarkibiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlaridan, shuningdek, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

vakolatlari doirasida konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar o'tkazadi, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

Boshqarma(Vazirlik)ning tezkor yig'ilishlarda taalluqliligi bo'yicha ishtirok etadi;

Mehnat qonunchiligi asosida sho'ba metodistini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritadi;

sho'ba metodistining mehnat intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan vazirlik rahbariyati nomiga tushuntirishlar oladi, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha rahbarga bildirishnoma kiritadi;

vakolati doirasida tuman bo'limlari va tizimdagi ta'lim tashkilotlari faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

7. Sho'ba boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi

8. Sho'ba boshlig'i quyidagilar uchun javobgar:

sho'ba nizomiga muvofiq sho'baga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar hamda lavozim yo'riqnomasida belgilangan majburiyatlarning to'laqonli bajarilishi;

sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi;

shoʻbada hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishi;

foydalanish uchun oʻziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va oʻzi ish olib boradigan xonada yongʻin xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

9. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan maʼlumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan maʼlumotlarni oshkor qilmaslik, Vazirlikning obroʻsi va shaʼniga putur yetkazishi mumkin boʻlgan maʼlumotlarni tarqatmaslik.

Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sho'basini metodistning lavozim YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sho'basini metodisti (keyingi o'rinlarda — sho'ba metodisti) ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba metodisti Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma deb yuritiladi) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba metodisti bevosita boshqarma boshlig'i va sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho'ba metodisti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari

4. Metodist:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Boshqarma (Vazirlik) ning hujjatlarida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hamda sho'ba boshlig'ining boshqa topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etadi;

Sho'baning faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha sho'ba boshlig'iga taklif kiritadi;

umumiy o'rta ta'lim siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlarining tegishli boshqarmalari bilan samarali amaliy hamkorlikni ta'minlashda sho'ba boshlig'iga ko'maklashadi;

sho'baning yillik, yarim yillik va choraklik ish rejasi loyahasini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

vakolatlari doirasida seminarlar o'tkazadi, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qiladi va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etadi;

sohaga oid hisobotlarni to'playdi, tahlil qiladi, rahbariyatga taqdim qilishni tashkil etadi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya qiladi;

Boshqarma (Vazirlik) ning ish rejasi, shuningdek, Boshqarma (Vazirlik) rahbariyati topshirig'iga asosan xizmat safarlariga boradi;

Boshqarma (Vazirlik) ning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qiladi;

faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqadi;

5. Metodistga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

3-bob. Metodistning huquqlari

6. Metodist zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

sho'baning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni Boshqarma (Vazirlik) tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

sho'ba oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida turli komissiyalar va ishchi guruhlar tarkibiga Boshqarma (Vazirlik) tizimidagi tashkilot va muassasalarning malakali xodimlarini jalb qilish yuzasidan sho'ba boshlig'iga takliflar kiritadi;

vakolati doirasida idoraviy mansub tashkilotlar va tizimdagi ta'lim tashkilotlarining faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

7. Metodist qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Metodistning javobgarligi

8. Metodist quyidagilar uchun javobgar:

zimmasiga yuklangan lavozim vazifalarining to'laqonli bajarilishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishi va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

9. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarma (Vazirlik)ning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish

Sho'ba boshlig'i lavozim yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish sho'ba boshlig'i (bundan buyon matnda – sho'ba boshlig'i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba boshlig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba boshlig'i bevosita boshliqqa bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida 106-sonli farmoni, 2019-yil 9-sentyabrdagi PQ-4444-son "O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Sho'ba boshlig'ining lavozim majburiyatlari

4. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

Sho'ba boshlig'i o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa qonun hujjatlariga, Agentlikning qarorlari, buyruqlari va topshiriqlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Sho'ba boshlig'i faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hududdagi ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining tashkil etilishini muvofiqlashtirish;

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq iqtidorli o'quvchilarni o'qitish, shaxsning ta'lim olish konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan maktablarga yetkazish va ijrosini nazorat qilish;

ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim taraqqiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminarlar, kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlar tashkil etish;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Agentlik rahbariyati topshirig'iga ko'ra me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda uni takomillashtirish;

tizimdagi ixtisoslashtirilgan maktablar bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishning yaqin, o'rta va uzoq istiqbol rejalarini ishlab chiqish;

iqtidorli o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish uchun tizimda ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish va ularning tarmog'ini maqbullashtirish choralari ko'rish, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zarur o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quvchilari uchun bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy attestatsiyasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarini joriy etilishini nazorat qilish, ilg'or tajribali va ijodkor o'qituvchilar faoliyatini ommalashtirish;

ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilariga beriladigan attestat, shahodatnoma va tegishli sertifikatlarning muvofiqlashtirish;

Manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda uni takomillashtirishda ishtirok etish;

rahbarning topshirig'iga binoan hududdagi ixtisoslashtirilgan ta'limni rivojlantirish yuzasidan hamkorlikdagi dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni amalga oshirishda qatnashish;

ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quvchilarning iste'dodi va qobiliyatlarini aniqlash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining respublika va xalqaro fan olimpiadalarida ishtirokini ta'minlash;

Ixtisoslashtirilgan maktablarda mehnat qilayotgan xodimlar va fuqarolarning ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq takliflari, ariza va shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha rahbariyatga, shuningdek, tegishliligi bo'yicha davlat hokimiyati hamda manfaatdor tashkilotlar va davlat idoralariga takliflar berish, zarur hollarda boshqarma yig'ilishi muhokamasiga kiritish.

ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining tashkil etilishini muvofiqlashtiradi;

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq iqtidorli o'quvchilarni o'qitish, shaxsning ta'lim olish konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishini ta'minlaydi, ixtisoslashtirilgan maktablarga yetkazadi va ijrosini nazorat qiladi;

ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim taraqqiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi va boshqa tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ushbu yo'nalishda tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etadi;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda rahbariyat topshirig'iga ko'ra me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi hamda uni takomillashtiradi;

tizimdagi ixtisoslashtirilgan maktablar bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishning yaqin, o'rta va uzoq istiqbol rejalarini ishlab chiqadi;

o'quvchilarning qobiliyatini, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish va ularning tarmog'ini maqbullashtirish choralari ko'radi, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zarur o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqadi;

ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy attestatsiyasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqadi, ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarini joriy etilishini nazorat qiladi, ilg'or tajribali va ijodkor o'qituvchilar faoliyatini ommalashtirishini tashkil etadi;

ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilariga beriladigan attestat, shahodatnoma va tegishli sertifikatlar yuzasidan hisobotlarni yuritadi;

ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quvchilar qabul kvotasini tasdiqlaydi va tasdiqlangan qabul kvotasi bo'yicha o'quvchilar qabuli yuzasidan hisobotlarni tayyorlaydi;

ixtisoslashtirilgan maktablarga pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilishni belgilaydi.

Rahbariyatning topshirig'iga binoan O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari bilan respublikada ixtisoslashtirilgan ta'limni rivojlantirish yuzasidan hamkorlikdagi dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni amalga oshirishda qatnashadi.

8. Sho'ba boshlig'i o'z vakolatlari doirasida boshqa tashkilot va idoralarning faoliyat to'g'risidagi materiallarni tayyorlashga ko'maklashish haqidagi buyurtma va so'rovlarini ko'rib chiqadi.

9. Sho'ba boshlig'iga uning xizmat majburiyatiga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlarni yuklashga boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari

10. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududdagi ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini o'rganib borish va ularga amaliy yordam ko'rsatishga tegishli idora va tashkilotlarni jalb etish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tasarrufidagi tashkilot va muassasalardan tegishli ma'lumotlar olish;

davlat va jamoat tashkilotlar bilan o'z vakolati doirasida ish yuritish va o'zaro yozishmalar olib borish;

o'z vakolatlari doirasida anjumanlar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar o'tkazish, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etish;

Boshqarmaning yig'ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish;

zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, shuningdek, undan keyingi ta'lim bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

tegishliligi bo'yicha davlat hokimiyati ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish, ularda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq tegishli hujjatlarni olish, vazirlik va idoralar bilan kelishgan xolda o'z vakolati doirasidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun ularni taklif qilish va axborotlarini tinglash;

ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini takomillashtirishga munosib ijobiy hissasini qo'shayotgan rahbar, pedagog va boshqa xodimlarni rag'batlantirish yoki taqdirlash bo'yicha Agentlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

ish hajmi ko'paygan holatlarda rahbariyat bilan kelishgan holda tashkilot va muassasalar xodimlarini ularning roziligi bilan jamoatchilik asosida vaqtincha ishlash uchun jalb etish;

ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahvolini o'rganish, ma'lumotlari va hisobotlarini muhokama qilish, rahbariyatga tegishli takliflar kiritish huquqlariga ega.

4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi

11. Sho'ba boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

12. Sho'ba boshlig'i faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

13. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

14. Sho'ba boshlig'i hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

15. Sho'ba boshlig'i imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

16. Sho'ba boshlig'i mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish

Sho'ba si metodisti lavozim yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish sho'basi metodisti (bundan buyon matnda – metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma deb yuritiladi) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Metodist bevosita boshliqqa bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida 106-sonli farmoni, 2019-yil 9-sentyabrdagi PQ-4444-son "O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

Metodist o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa qonun hujjatlariga, Agentlikning qarorlari, buyruqlari va topshiriqlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Metodist faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq iqtidorli o'quvchilarni o'qitish, shaxsning ta'lim olish konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan maktablarga yetkazish va ijrosini nazorat qilish;

ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim taraqqiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminarlar, kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlar tashkil etish;

tizimdagi ixtisoslashtirilgan maktablar bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishning yaqin, o'rta va uzoq istiqbol rejalarini ishlab chiqish;

iqtidorli o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish uchun tizimda ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish va ularning tarmog'ini maqbullashtirish choralari ko'rish, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zarur o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quvchilari uchun bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy attestatsiyasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, ta'lim jarayoniga o'qitishning

ilg'or shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarini joriy etilishini nazorat qilish, ilg'or tajribali va ijodkor o'qituvchilar faoliyatini ommalashtirish;

ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilariga beriladigan attestat, shahodatnoma va tegishli sertifikatlarining muvofiqlashtirish;

Manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda uni takomillashtirishda ishtirok etish;

rahbarning topshirig'iga binoan hududdagi ixtisoslashtirilgan ta'limni rivojlantirish yuzasidan hamkorlikdagi dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni amalga oshirishda qatnashish;

ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quvchilarning iste'dodi va qobiliyatlarini aniqlash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining respublika va xalqaro fan olimpiadalarida ishtirokini ta'minlash;

Ixtisoslashtirilgan maktablarda mehnat qilayotgan xodimlar va fuqarolarning ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq takliflari, ariza va shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha rahbariyatga, shuningdek, tegishligi bo'yicha davlat hokimiyati hamda manfaatdor tashkilotlar va davlat idoralarga takliflar berish, zarur hollarda boshqarma yig'ilishi muhokamasiga kiritish.

ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining tashkil etilishini muvofiqlashtiradi;

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq iqtidorli o'quvchilarni o'qitish, shaxsning ta'lim olish konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishini ta'minlaydi, ixtisoslashtirilgan maktablarga yetkazadi va ijrosini nazorat qiladi;

ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim taraqqiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi va boshqa tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ushbu yo'nalishda tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etadi;

ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy attestatsiyasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqadi, ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarini joriy etilishini nazorat qiladi, ilg'or tajribali va ijodkor o'qituvchilar faoliyatini ommalashtirilishini tashkil etadi;

ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilariga beriladigan attestat, shahodatnoma va tegishli sertifikatlar yuzasidan hisobotlarni yuritadi;

ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quvchilar qabul kvotasini tasdiqlaydi va tasdiqlangan qabul kvotasi bo'yicha o'quvchilar qabuli yuzasidan hisobotlarni tayyorlaydi;

ixtisoslashtirilgan maktablarga pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilishni belgilaydi.

6. Metodist o'z vakolatlari doirasida boshqa tashkilot va idoralarning faoliyat to'g'risidagi materiallarni tayyorlashga ko'maklashish haqidagi buyurtma va so'rovlarini ko'rib chiqadi.

7. Metodistga uning xizmat majburiyatiga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlarni yuklashga boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Metodistning huquqlari

8. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududdagi ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini o'rganib borish va ularga amaliy yordam ko'rsatishga tegishli idora va tashkilotlarni jalb etish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tasarrufidagi tashkilot va muassasalardan tegishli ma'lumotlar olish;

davlat va jamoat tashkilotlar bilan o'z vakolati doirasida ish yuritish va o'zaro yozishmalar olib borish;

o'z vakolatlari doirasida anjumanlar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar o'tkazish, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etish;

Boshqarmaning yig'ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish;

zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, shuningdek, undan keyingi ta'lim bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

tegishliligi bo'yicha davlat hokimiyati ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish, ularda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq tegishli hujjatlarni olish, vazirlik va idoralar bilan kelishgan xolda o'z vakolati doirasidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun ularni taklif qilish va axborotlarini tinglash;

ish hajmi ko'paygan holatlarda rahbariyat bilan kelishgan holda tashkilot va muassasalar xodimlarini ularning roziligi bilan jamoatchilik asosida vaqtincha ishlash uchun jalb etish;

ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahvolini o'rganish, ma'lumotlari va hisobotlarini muhokama qilish, rahbariyatga tegishli takliflar kiritish huquqlariga ega.

4-bob. Metodistning javobgarligi

9. Metodist o'z lavozim majburiyatlari hamda nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

10. Metodist faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

11. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

12. Metodist hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

13. Metodist imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

14. Metodist mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'ba si boshlig'ining lavozim

YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'basini (keyingi o'rinlarda – Sho'ba) boshlig'ining lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba boshlig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba boshlig'i bevosita boshliqqa bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasini asosida amalga oshiradi.

3. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Sho'ba boshlig'ining lavozim majburiyatlari

4. Sho'ba boshlig'i:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

Boshqarmaning hay'at qarorlari, Boshqarma boshlig'ining buyruq va farmoyishlariga, Boshqarmaning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan zimmasiga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash;

Sho'ba faoliyati bo'yicha ishlarga umumiy rahbarlik qilish, xodimlarning mehnat faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish, Sho'ba faoliyatini Boshqarmaning boshqa Sho'ba lari faoliyati bilan muvofiqlashtirish;

boshqarmaning xarajatlar smetalarida tizimdagi jarayonlarni avtomatlashtirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, boshqarma xodimlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha malakasini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Sho'ba xodimlariga ushbu Nizomda yoki boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

AKT ni joriy etish va ta'limni raqamlashtirish Sho'basini boshlig'i zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

Sho'baning yillik ish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish, bunda tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish;

Sho'ba xodimlarining xizmat vazifalarini taqsimlash, Maktabgacha va maktab ta'limi Boshqarmasining tegishli buyrug'iga muvofiq AKT ni joriy etish va ta'limni raqamlashtirish sho'basini xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish, xodimlarni ishga olish va ozod etish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi Boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

Umumiy o'rtta ta'lim maktablarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirish, internet va lokal tarmog'i, WiFi qurilmalari, kompyuter texnikalarini doimiy ishlashini nazorat qilish, soha bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni monitoring qilish;

Hududlarga berilayotgan kompyuter sinflari va qo'shimcha jihozlarini ro'yxatda ko'rsatilgan umumta'lim maktablariga o'zgarishsiz yetib borishini va "Informatika va axborot texnologiyalari" fani xonasiga o'rnatilishini ta'minlash;

AKT ni joriy etish va ta'limni raqamlashtirish sho'basini tomonidan umumta'lim maktablariga etkazib berilayotgan kompyuterlarga dasturlashga oid zamonaviy dasturiy tizimlar, boshqarma tomonidan yaratilgan platforma (resurs)lar va boshqa ta'lim resurslarini o'rnatilishini, internetdan samarali foydalanish uchun ichki lokal tarmoqqa ulanishi hamda dars jarayonida keng foydalanishlari uchun sharoit yaratib berilayotganini nazorat qilish;

boshqarmaning axborot xavfsizligi siyosatini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT faoliyatni rivojlantirish bo'yicha konsepsiya, strategiya, dastur va rejalar hamda sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlanishini nazorat qiladi;

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tizimini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy qilish va axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ishlarini amalga oshiradi hamda nazorat qiladi;

boshqarmaning raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha joriy va istiqboldagi rejalarini ishlab chiqadi;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish, shuningdek rahbarlik qiladigan tarkibiy bo'linma xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Sho'ba boshlig'ining huquqlari

6. Sho'ba boshlig'i zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Sho'ba faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, bo'ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilaydi;

Sho'ba zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlaridan, shuningdek, boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

Sho'ba zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassisleri va malakali

ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha Boshqarma boshlig'iga taklif kiritadi;

Boshqarma rahbariyatining topshirig'iga ko'ra boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda Sho'ba vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha boshqarma nomidan vakillik qiladi;

Boshqarmaning Hay'at, apparat Boshqarma boshlig'iga va Boshqarma boshlig'iga o'rinbosarlari huzuridagi boshqa tezkor yig'ilishlarda ishtirok etadi;

vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyati bilan bog'liq material

va hujjatlar bilan tanishish uchun ushbu ma'lumotlarni tarkibiy bo'linmalardan so'rab oladi;

Mehnat qonunchiligi asosida Sho'ba xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan Boshqarma boshlig'ining o'rinbosariga takliflar kiritadi;

Sho'ba xodimlarining mehnat intizomini buzganlik, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan boshqarma rahbariyati nomiga tushuntirishlar oladi, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha Boshqarma boshlig'iga va yoki Boshqarma boshlig'ining o'rinbosariga o'rnatilgan tartibda takliflar kiritadi;

ish hajmi ko'paygan holatlarda boshqarma rahbariyati bilan kelishgan holda boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar xodimlarini ularning roziligi bilan jamoatchilik asosida vaqtincha ishlash uchun jalb etadi;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan bepul foydalanadi;

vakolati doirasida hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlarning faoliyatini belgilangan tartibda o'rganadi va amaliy-metodik yordamlar ko'rsatadi;

zarur hollarda boshqarma mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

Sho'ba boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

4-bob. Sho'ba boshlig'ining javobgarligi

8. Sho'ba boshlig'i quyidagilar uchun javobgar:

Sho'ba nizomiga muvofiq Sho'ba ga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar hamda lavozim yo'riqnomasida belgilangan majburiyatlarning to'laqonli bajarilishi;

Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi;

Sho'ba da hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

jamoat va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'ba
bosh mutaxassisi lavozim**

YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'ba bosh mutaxassisining (keyingi o'rinlarda — Bosh mutaxassis) lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Bosh mutaxassis Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshlig'ining (keyingi o'rinlarda — Boshqarma boshlig'iga) buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bosh mutaxassis Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi, o'z faoliyatini Sho'ba ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Bosh mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnoma" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Bosh mutaxassisning lavozim majburiyatlari

4. Bosh mutaxassis:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan zimmasiga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi raqamlashtirish bo'yicha yillik, choraklik va oylik hisobotlarni hamda maktablarni kompyuterlashtirish bo'yicha ma'lumotlarni Sho'ba boshlig'i bilan kelishib taqdim etadi, boshqarmadan kelgan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi va monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bo'lim boshlig'iga o'z vaqtida taqdim etadi;

AKT ni joriy etish va ta'limni raqamlashtirish Sho'ba mutaxassisi zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha Sho'ba da mas'ul hisoblanadi;

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, tuman bo'limlari, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlaring rasmiy veb-saytini qonunchilik doirasida faoliyatini yuritilish choralari ko'radi;

Sho'ba ning ish rejasi bo'yicha ishlarni tashkil etish, yillik, choralik va oylik hisobotlarini tayyorlash;

zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirish, ish jarayonida tashkil etilgan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar hamda axborot xavfsizligini ta'minlash, xodimlarning AKTdan samarali foydalana olishlari uchun malaka kurslarini tashkil etish;

boshqarma tarkibiy bo'linmalari xodimlarining, tasarrufidagi tashkilotlarning axborot xavfsizligi siyosatiga, talablariga amal qilishni nazorat qiladi;

axborot xavfsizligi siyosatiga, talablariga rioya qilmagan xodimlar bo'yicha ma'lumotlarni tegishli chora ko'rish maqsadida Sho'ba boshlig'iga kiritadi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturiy tizimlar, elektron ta'lim resurslarining joriy etilishi, AKT infratuzilmasi va loyihalarining amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

Umumta'lim maktablarida mavjud kompyuter texnikalarini xatlovdan o'tkazish, va ma'nan eskirgan kompyuter texnikalarini balansdan chiqarish bo'yicha taklif kiritish hamda maktablardagi kompyuterlarga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha manzilli ro'yxat shakllantirish;

“O'quv ta'lim ta'minot” Davlat muassasasi yoki Pudratchi tashkilotlar tomonidan umumta'lim maktablariga yetkazib berilayotgan kompyuter jamlanmalarini qabul qilib olish dalolatnomalar tuzish hamda foto lavhalar asosida hisobotlarni shakllantirish, doimiy ravishda ishchi holatda bo'lishini ta'minlash (rasmiiy ijtimoiy tarmoqlarda yoritish);

soha bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni Ommaviy axborot vositalarida va rasmiy sahifalarda yoritilishini ta'minlash;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Bosh mutaxassisning huquqlari

6. Bosh mutaxassis zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Sho'ba zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlaridan, shuningdek, boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

Sho'ba zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun Sho'ba boshlig'i, boshqarma rahbariyati bilan kelishgan holda Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini jalb etilishi bo'yicha Sho'ba boshlig'iga taklif kiritadi;

Sho'ba vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini o'rganadi, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlaydi;

Boshqarma rahbariyatining topshirig'iga ko'ra boshqa davlat boshqaruv organlarida, respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda Sho'ba vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha boshqarma nomidan vakillik qiladi;

Sho'ba vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha tashkil etiladigan yig'ilish, majlis va seminarlarda ishtirok etadi.

ish hajmi ko'paygan holatlarda Sho'ba boshlig'i va boshqarma rahbariyati bilan kelishgan holda boshqarma tasarrufidagi tashkilot va muassasalar xodimlarini ularning roziligi bilan jamoatchilik asosida vaqtincha ishlash uchun jalb etadi.

vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyati bilan bog'liq material va hujjatlar bilan tanishish uchun ushbu ma'lumotlarni tarkibiy bo'linmalardan so'rab oladi;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan bepul foydalanadi;

zarur hollarda boshqarma mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Bosh mutaxassisning javobgarligi

7. Bosh mutaxassis quyidagilar uchun javobgar:

Sho'ba nizomiga muvofiq Sho'ba ga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar hamda lavozim yo'riqnomasida belgilangan majburiyatlarning to'laqonli bajarilishi;

Sho'ba faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi;

Sho'ba da hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odoq-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'ba si yetakchi mutaxassisining lavozim

YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish Sho'ba yetakchi mutaxassisining (keyingi o'rinlarda — yetakchi mutaxassis) lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Yetakchi mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshlig'ining buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Yetakchi mutaxassis bevosita Sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi, o'z faoliyatini Sho'ba ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Yetakchi mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga hamda boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari), "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Markaziy apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi Yo'riqnoma" hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Yetakchi mutaxassisining lavozim majburiyatlari

4. Yetakchi mutaxassis:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan zimmasiga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash;

Sohaga oid ma'lumotlar bankini shakllantiradi va yuritadi;

umumta'lim muassasalarini keng polosali Internet tarmog'iga ulash va ichki lokal tarmoq uskunalari hamda Wi-Fi qurilmalari bilan ta'minlash ishlarida "O'zbektelekom" AK xodimlari bilan hamkorlikda ishlaydi va amalga oshirilgan ishlarni monitoring qilib boradi hamda Sho'ba boshlig'iga ma'lumot kiritadi;

maktablarda AKT jihozlardan va elektron ta'lim resurslari, Internet tarmog'idan samarali foydalanish, elektron hujjat almashinuvi tizimini uzluksiz ishlashi bo'yicha seminar-treninglar tashkil etadi va ulardan samarali foydalanishni nazorat qiladi;

Kundalik.com tizimi bo'yicha yillik, choraklik va oylik hisobotlarni tayyorlaydi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hamda Normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi va monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bo'lim boshlig'iga o'z vaqtida taqdim etadi;

umumta'lim maktablari bilan tizimlardan samarali foydalanish bo'yicha seminar-treninglar videokonferensiya, onlayn vebinar tashkil etish bo'yicha reja grafik ishlab chiqish va ishlab chiqilgan reja va bajarilgan ishlar bo'yicha Sho'ba boshlig'iga o'rnatilgan tartibda hisobot topshiradi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida AKT infratuzilmasi va loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan muntazam monitoringlar o'tkazadi hamda hisobotlarni shakllantiradi;

Boshqarma va umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan axborot tizimlari, elektron hujjat almashinuv tizimlarida hamda boshqarmaning rasmiy veb-saytida administratorlik vazifasini bajarish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi tashkilot va muassasalarning elektron muhitini shakllantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid ilg'or tajribalarni o'rganishni ommalashtirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha videokonferensiyalar hamda videoseminarlar o'tkazish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirish, mavjud-axborot texnologiyalari jihozlaridan foydalanish, saqlash texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarini yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulanishi va "Education" tariflarida faol ishlashi bo'yicha nazorat olib borish, ichki lokal tarmoq va Wi-Fi uskunalari ishchi holatda bo'lishi (o'qituvchilar xonasi, kompyuter sinf xonalari) bo'yicha nazorat olib borish;

maktablardagi Informatika sinf xonalaridagi barcha kompyuterlarga dasturlash va raqamlashtirishga oid zamonaviy dasturlar, Python, Scratch, Java, JavaScript, C#, C++, Adobe Photoshop, CorelDRAW, 3D Max va boshqa dasturlarni o'rnatishni tashkil etish;

Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan axborot tizimlar va resurslar, xalqaro ro'yxatdan o'tgan o'quv platformalari, jumladan, maktab.uz, kitob.uz, smartland.maktab.uz, EduKids, educare.uzedu.uz, eduportal.uz va boshqa axborot tizimlaridan foydalanishni tashkil etish;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Yetakchi mutaxassisning huquqlari

6. Yetakchi mutaxassis zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Sho'ba zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni Boshqarmaning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlaridan, shuningdek, boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab oladi va ular bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

Sho'ba vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini o'rganadi, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlaydi;

Boshqarma rahbariyatining topshirig'iga ko'ra boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda Sho'ba vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha boshqarma nomidan vakillik qiladi;

vakolatlari doirasida maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyati bilan bog'liq material va hujjatlar bilan tanishish uchun ushbu ma'lumotlarni tarkibiy bo'linmalardan so'rab oladi;

Sho'ba boshlig'i bilan birgalikda mavjud mehnat sharoitlarini yaxshilash, zaruriy vositalar bilan ta'minlash yuzasidan Sho'ba boshlig'iga takliflar kiritadi;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan bepul foydalanadi;

Sho'ba vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha tashkil etiladigan yig'ilish, majlis va seminarlarda ishtirok etadi;

zarur hollarda boshqarma mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarida tahsil oladi, chet tillarini o'rganadi.

Yetakchi mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Yetakchi mutaxassisning javobgarligi

7. Yetakchi mutaxassis quyidagilar uchun javobgar:

zimmasiga yuklangan lavozim vazifalarining to'laqonli bajarilishi;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularni but saqlanishi va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi;

yurituvidagi hujjatlarni belgilangan tartibda saqlanishi;

jamo va mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari talablariga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborotlar bilan ishlashda belgilangan talablarga rioya qilish, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, Boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'bası boshlig'ining lavozim

yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'bası boshlig'i (bundan buyon matnda – sho'ba boshlig'i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho'ba boshlig'i Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarması boshlig'i (bundan buyon matnda — boshliq) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho'ba boshlig'i bevosita boshliqqa va o'z yo'nalishi bo'yicha boshliq o'rinbosariga bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho'ba boshlig'i lavozimiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan, kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan, sohaga oid normativ huquqiy hujjatlarni tushunadigan, hujjatlar bilan ishlash layoqatiga ega hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan O'zbekiston Respublikası fuqarosi tayinlanadi.

4. Sho'ba boshlig'i O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikası Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikası Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikası Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga, boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikası Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi) hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'bası boshlig'ining lavozim majburiyatlari

5. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni amalga oshiradi:

sho'ba faoliyatiga bevosita umumiy rahbarlik qiladi, sho'ba ishlarini tashkillashtiradi, yo'naltiradi va nazorat qiladi;

sho'baga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Boshqarma va uning rahbariyati faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish hamda tahlil etish jarayonlariga bevosita rahbarlik qiladi;

sho'ba vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarmaning buyruq, xat va hujjatlari loyihalarini tayyorlaydi va rahbariyatga imzoga kiritadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish, tugatish va qayta tashkil etish masalalarida rahbariyatga taklif kiritadi;

boshqarmaning boshqa bo'limlari bilan faoliyat uzviyligini ta'minlash, sho'ba faoliyatiga doir ma'lumotlar hamda hududlardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid axborotlarni yig'adi, tahlil qiladi va hisobotlar tayyorlaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va istiqbolli ish rejalarining ishlab chiqilishida faol ishtirok etadi;

yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilishi yoki barpo etilishida hududlardagi bolalarni qamrab olish ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda takliflar kiritadi;

davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularning muqobil shakllarini yanada rivojlantirish bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni tahlil qiladi, mavjud muammolar yuzasidan boshqarma boshlig'iga taklif kiritadi;

maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish, ayniqsa 6 yoshli bolalarni to'liq qamrab olish orqali boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash choralari ko'rilishini ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish va tashkilotdan chiqarilishini hisobini olib borilishini nazorat qiladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli tanlovlar, ko'rgazmalar, musobaqalar o'tkazish bo'yicha Nizom va zarur hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantirish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish hamda maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-hujjatlarga rioya etilishi ustidan monitoring olib borilishini nazorat qiladi;

ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganadi, o'rganish natijalariga ko'ra ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar beradi va tavsiyalar tayyorlaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavqeyini ko'tarishda jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yilishini nazorat qiladi;

o'z yo'nalishi bo'yicha ommaviy axborot vositalarida tuman(shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va tashkilotlari faoliyati va maqsadlarini, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni targ'ib qilib boradi;

o'z yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini reytingini aniqlash jarayonida ishtirok etadi, ularni tahlil qiladi hamda tegishli xulosalar tayyorlaydi va ularga metodik yordam ko'rsatadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun shart-sharoitlar yaratilishi hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha tegishli boshqarma boshlig'i o'rinbosariga takliflar kiritadi;

o'z yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid ilg'or tajribalarni o'rganish, aniqlash hamda ommalashtirish ishlarini nazorat qiladi;

bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha moslashuvchan, muqobil modellarni rivojlantirish bo'yicha axborot-tahlil ishlarini o'tkazadi hamda takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

sho'ba vakolatiga kiradigan masalalarga bag'ishlangan uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odo-axloq qoidalari, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etadi;

boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

boshqarma tizimidagi rahbar va xodimlarni rag'batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

faoliyati doirasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi, murojaatlarni o'rganadi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'radi;

o'z vakolati doirasida tegishli hujjatlarni imzolaydi.

6. Sho'ba boshlig'i quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i va o'rinbosari oldida hisobot berishi.

3-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini boshlig'ining huquqlari

7. Sho'ba boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo'ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishilgan holda boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlaridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

4-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini boshlig'ining javobgarligi

9. Sho'ba boshlig'i o'z lavozim majburiyatlari hamda bo'lim nizomiga muvofiq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

11. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini boshlig'ining hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

13. Sho'ba boshlig'i imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

14. Sho‘ba boshlig‘i mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basi metodistining lavozim

Yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basi metodisti** (bundan buyon matnda – metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i (bundan buyon matnda — boshliq) buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Metodist bevosita boshqarma boshlig'i, o'rinbosar va sho'ba boshlig'iga bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Metodist lavozimiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan, kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan, sohaga oid normativ huquqiy hujjatlarni tushunadigan, hujjatlar bilan ishlash layoqatiga ega hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tayinlanadi.

4. Metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga, boshqarma boshlig'i ko'rsatmalariga (bundan buyon matnda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hamda vazirlikning hujjatlari deb yuritiladi) hamda mazkur yo'riqnomaga amal qilgan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basi metodistining lavozim majburiyatlari

5. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

Boshqarma boshlig'i rahbarligida tashkil etiladigan yig'ilishlar, shuningdek boshqa tadbirlarga hujjatlarni tayyorlanishini ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni joylarga yetkazadi va nazoratini olib boradi;

boshqarmaning boshqa bo'limlari bilan faoliyat uzviyligini ta'minlaydi, sho'ba faoliyatiga doir ma'lumotlar hamda hududlardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid axborotlarni yig'adi, tahlil qiladi va hisobotlar tayyorlaydi;

maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish, ayniqsa 6 yoshli bolalarni to'liq qamrab olish orqali boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash choralari ko'rilishini ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish va tashkilotdan chiqarilishini hisobini olib borilishini nazorat qiladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kompetensiyaviy yondashuvni tashkil etadi;

bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantirish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish hamda maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-hujjatlarga rioya etilishi ustidan monitoring olib borilishini nazorat qiladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavqeyini ko'tarishda jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yilishini nazorat qiladi;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda samarali metodlarini joriy etadi;

o'z yo'nalishi bo'yicha ommaviy axborot vositalarida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni targ'ib qilib boradi;

o'z yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar) bo'limlarining faoliyatini o'rganishda ishtirok etadi, ularning rahbarlaridan o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun kerakli hujjat va materiallarni yig'adi va ularni umumlashtiradi;

o'z yo'nalishi bo'yicha hujjatlar ijrosini va topshiriqlarning bajarilishini ta'minlaydi, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha qat'iy nazoratni yo'lga qo'yadi;

sho'ba boshlig'i xizmat safarida bo'lganda va boshqa sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajaradi;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odo-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etadi;

boshqarmaning obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

boshqarma tizimidagi rahbar va xodimlarni rag'batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

faoliyati doirasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi, murojaatlarni o'rganadi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritadi;

o'z vakolati doirasida tegishli hujjatlarni imzolaydi.

6. Metodist quyidagilarni bajarishi shart:

ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa va mehnat shartnomalarining talablari va shartlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga amal qilishi;

Boshqarma boshlig'i buyruqlarida yuklatilgan tegishli topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlashi;

bajarilgan ishlar to'g'risida Boshqarma boshlig'i va sho'ba boshlig'i oldida hisobot berishi.

3-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basi metodistining huquqlari

7. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufdagi tashkilotlardan so'rab olish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini o'rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog'idan tekin foydalanish;

tasarrufdagi tashkilotlar va tuman (shahar) bo'limlari xodimlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan boshqarma boshlig'i nomiga tushuntirishlar olish, ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha o'rnatilgan tartibda sho'ba boshlig'iga takliflar kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini metodisti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

4-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini metodistining javobgarligi

9. Metodist o'z lavozim majburiyatlari hamda sho'ba nizomiga muvofiq sho'baga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basini faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

11. Foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho'basida hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashga shaxsan javob beradi.

13. Metodist imzo qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

14. Metodist mazkur lavozim yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishni muvofiqlashtirish Sho‘ba si boshlig‘ining lavozim yo‘riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo‘riqnomasi Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishni muvofiqlashtirish Sho‘basi boshlig‘i (bundan buyon matnda – Sho‘ba boshlig‘i)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Sho‘ba boshlig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig‘i buyrug‘iga ko‘ra Vazirlik bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Sho‘ba boshlig‘i bevosita boshliqqa bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Sho‘ba boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay‘ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, boshqarmaning Hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Sho‘ba boshlig‘ining lavozim majburiyatlari

4. Sho‘ba boshlig‘i quyidagilarni amalga oshiradi:

vazirlikning hay‘ati qarorlari, vazirning buyruqlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko‘rsatmalariga, agentlikning qarorlari va buyruqlari, boshqarmaning hay‘ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan Sho‘baga yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlash;

Sho‘ba faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, uning yillik, choraklik va istiqbol ish rejalarining ishlab chiqilishini tashkil qilish, ularni boshqarmaning umumiy ish rejasi bilan muvofiqlashtirish, ularda belgilangan tadbirlarning sifatli ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

ish taqsimoti asosida Sho‘ba xodimlarining lavozim majburiyatlariga rioya qilinishini ta‘minlash;

boshqarmaning boshqa tarkibiy bo‘linmalari bilan faoliyat uzviyligini ta‘minlash, faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish;

vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarmaning buyruq, xat va hujjatlari loyihalarini tayyorlash va rahbariyatga imzoga kiritish;

umumiy faoliyati yuzasidan boshqarma rejasiga ko‘ra apparat yig‘ilish, hay‘at majlisi va ishlab chiqarish yig‘ilishlariga ma‘lumotlar tayyorlash va boshqarma boshlig‘i va uning birinchi o‘rinbosariga taqdim etish;

Sho‘ba xodimlarining kasbiy, metodik va ilmiy salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilish, ish taqsimoti asosida Sho‘ba xodimlarining huquq va majburiyatlarini belgilash, xodimlar o‘rtasidagi vazifalar taqsimotiga zaruriyatga qarab tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, Sho‘ba vakolatiga kiradigan vazifalarni hal etish chora-tadbirlarini belgilash;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha hududiy tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi Sho‘ba lari rahbar va kadrlari bilan ishlash;

boshqarmaning boshqa Sho‘balari bilan faoliyat uzviyligini ta‘minlash, Sho‘ba faoliyatiga doir ma‘lumotlar hamda hududlardan malaka oshirish faoliyatiga oid axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash;

maktab ta'limi tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy mahoratini diagnostikadan o'tkazish va bilim ko'rsatkichlarini baholash sinovlarida ishtirok etishini ta'minlash;

tizimdagi maktabgacha va maktab ta'limi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslariga o'z vaqtida va to'la jalb qilinishini ta'minlash;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan navbatdagi kalendar yilda rahbar va pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha shakllantirilgan buyurtmalarni malaka oshirish yo'nalishlari va tashkilotlari bo'yicha guruhlariga ajratgan holda umumlashtirish;

pedagog kadrlar kasbiy rivojlantirish bo'yicha umumlashtirilgan buyurtmalarni Vazirlikka taqdim etish;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi bilan ishlash faoliyatini muvofiqlashtirish;

uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish va qayta tayyorlash) kurslarining o'quv rejasi, dasturi, o'quv-metodik va boshqa hujjatlarini tayyorlash, o'quv kurslarining davomiyligi hamda ularni tashkil etish shakllari bo'yicha Vazirlikka takliflar kiritish;

tizimda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar malakasini oshirish istiqbol rejalarini belgilash, yillik reja asosida malaka oshirishga yuborilishini nazorat qilish;

rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirishda A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti va hududiy Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari bilan hamkorlikda ishlash va ularni o'z vaqtida malaka oshirish kurslariga jalb etish;

jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va chaqiruvga qadar boshlang'ich rahbarlarini malakasini oshirishda hududiy pedagogika oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;

pedagoglarni malakasini oshirish bilan shug'ullanadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

muayyan mutaxassislikka talab ortishi munosabati bilan ayrim pedagog kadrlarning qayta ixtisoslashuvi yuzasidan Vazirlikka takliflar kiritish;

o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglarni maxsus sirtqi va sirtqi Sho'balarda o'qish uchun oliy ta'lim tashkilotlariga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda samarali metodlarini joriy etish;

kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

o'ziga berilgan vakolatlar doirasida Sho'baga kelib tushgan xat, ariza va shikoyatlar hamda murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

boshqarma nizomi, kasbiy odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish, shuningdek rahbarlik qiladigan tarkibiy bo'linma xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Sho‘ba boshlig‘ining huquqlari

6. Sho‘ba boshlig‘i quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirilish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta‘tillari berish orqali ta‘minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta‘minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta‘minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi va ma‘naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish.

Sho‘ba faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, bo‘ysunuvidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilash;

Sho‘ba zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni boshqarma xodimlari va tuman (shahar) Sho‘balari, tasarrufdagi tashkilotlar shuningdek boshqarma rahbariyati bilan kelishilgan holda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

Sho‘ba zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma rahbarlari bilan kelishgan holda boshqarma tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) Sho‘ba laridan xodimlarini jalb etish, shuningdek boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etilishi bo‘yicha boshqarma boshlig‘iga taklif kiritish;

Sho‘ba vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar tuman (shahar) Sho‘ba lari faoliyatini o‘rganish, tahlil qiladi va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha taklif tayyorlash;

xizmat majburiyatlari doirasida xizmat aloqasi, davlatlararo va shaharlararo aloqa, elektron pochta, internet tarmog‘idan tekin foydalanish;

mehnat qonunchiligi asosida Sho‘ba xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek, alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni rag‘batlantirish yuzasidan boshqarma boshlig‘iga takliflar kiritish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish;

7. Sho‘ba boshlig‘i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4-bob. Sho‘ba boshlig‘ining javobgarligi

8. Sho‘ba boshlig‘i o‘z lavozim majburiyatlari hamda Sho‘ba nizomiga muvofiq Sho‘ba ga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun javob beradi.

9. Sho‘ba faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun javob beradi.

10. Foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi hamda ularning but saqlanishini va o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

11. Sho‘ba da hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartibda saqlanishini ta‘minlashga shaxsan javob beradi.

12. Sho‘ba boshlig‘i imzo qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

13. Sho‘ba boshlig‘i mazkur lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda intizomiy va moddiy javobgardir.

Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish Sho'ba metodistining lavozim yo'riqnomasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur lavozim yo'riqnomasi Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishni muvofiqlashtirish Sho'ba metodisti (keyingi o'rinlarda metodist)ning lavozim majburiyatlari, huquqlari va javobgarliklarini belgilab beradi.

2. Metodist Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda Hududiy boshqarma) boshlig'i buyrug'iga ko'ra lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Metodist bevosita boshliqqa bo'ysunadi va o'z faoliyatini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida amalga oshiradi.

3. Metodist O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning Hay'ati qarorlari, vazirning buyruq va farmoyishlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning Hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlagan holda faoliyatini olib boradi.

2-bob. Metodistning lavozim majburiyatlari

4. Metodist quyidagilarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, farmoyishlari va qarorlari, hukumat qaror va farmoyishlarini, davlat dasturlari asosida qabul qilingan, Mahalliy davlat hokimiyat organlarining qarorlari, buyruqlari ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;

vazirlikning hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlariga, vazirlikning hujjatlari hamda ko'rsatmalariga, boshqarmaning hay'ati qarorlari, boshliq buyruqlari va topshiriqlari bilan Sho'baga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash;

tizimdagi maktabgacha va maktab ta'limi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish yuzasidan boshqarma rejasiga ko'ra apparat yig'ilish, hay'at majlisi va ishlab chiqarish yig'ilishlariga ma'lumotlar tayyorlashda Sho'ba boshlig'iga ko'maklashish;

tizimdagi maktabgacha va maktab ta'limi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilish, mavjud muammolar bo'yicha Sho'ba boshlig'iga axborot berish;

tizimdagi maktabgacha va maktab ta'limi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni joylarga yetkazish va nazoratini olib borish;

boshqarmaning boshqa Sho'balari bilan faoliyat uzviyligini ta'minlash, Sho'ba faoliyatiga doir ma'lumotlar hamda hududlardan tizimdagi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish oid axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash;

tizimdagi maktabgacha va maktab ta'limi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni ta'minlash maqsadida prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilishda ishtirok etish;

tizimdagi rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirilishi hisobini olib borilishini nazorat qilish;

o'z yo'nalishi bo'yicha ommaviy axborot vositalarida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni targ'ib qilib borish;

o'z yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar) Sho'balarining faoliyatini o'rganishda ishtirok etish, ularning rahbarlaridan o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun kerakli hujjat va materiallarni yig'ish va ularni umumlashtirish;

o'z yo'nalishi bo'yicha hujjatlar ijrosini va topshiriqlarning bajarilishini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha qat'iy nazoratni yo'lga qo'yishi;

Sho'ba boshlig'i xizmat safarida bo'lganda va boshqa sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajarish;

xodimlarning va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish va ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

5. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Metodistning huquqlari

6. Metodist quyidagi huquqlarga ega:

o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;

davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

